

O.A. MAXMUDOVA

**MAKTABGACHA  
YOSHDAGI BOLALARНИ  
RASM CHIZISHGA  
О’RGATISH METODIKASI**





O.A. MAXMUDOVA

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RASM CHIZISHGA O'RGATISH METODIKASI

*O'quv qo'llanma*



TOSHKENT  
«NISO POLIGRAF»  
2019

O'UK 373.2

KBK 74.102

M20

#### **Tuzuvchi-muallif:**

**O.A. Maxmudova** – Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi «Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari» kafedrasi dosent v.b.

#### **Taqrizchilar:**

**L. Mirjalolova** – XTXQTUMOXM «Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikaları» kafedra mudiri p.f.n., dosent;

**Z. Mamarajabova** – Nizomiy nomidagi TDPU «Surdopedagogika» kafedrasi professori, f.f.n;

**Sh. Abdurasulova** – Uchtepa tumani 171-MTT uslubchisi.

#### **Maxmudova O.A.**

**Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizisbga o'rgatish metodikasi.** – T.: «Niso Poligraf» nashriyoti, 2019. – 152 bet.

O'UK 373.2

KBK 74.102

O'quv qo'llianma maktabgacha ta'lim muassasa pedagoglari uchun zarur bo'ladigan kasbiy mahorat, o'quv-uslubiy faoliyatni yuksaltirish bilan bog'liq kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Mazkur o'quv qo'llianma O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi asosida yaratildi.

Qo'llianmada bolalarning tasviriy san'at markazlarida va mashg'ulotdan tashqari vaqtida rasm chizishlari uchun namunalar keltirilgan.

Ushbu qo'llianma maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglari, maktabgacha ta'lim xodimlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalari tinglovchilari, oliy ta'lim talabalari hamda ota-onalar uchun mo'ljallangan.

«Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatish metodikasi» o'quv qo'llianmasi Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markaz ilmiy-metodik kengashida muhokama etlib, 2019-yil 29-iyundagi 5-sonli qarori bilan tasdiqlandi.

O'quv qo'llianma O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan IP-CENTER №001470 Reyestr raqami bilan 2019-yil 29-yulda ro'yxatdan o'tkazilgan va mualliflik huquqi bilan tasdiqlangan.

ISBN 978-9943-5452-6-7

© O.A. Maxmudova, 2019

© «Niso Poligraf», 2019

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi «2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni mакtab ta'limga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lif-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lif dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar blian ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'llim muassasalarining moddiy texnika bazasini, maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017–2021-yillarga mo'ljallangan dasturda belgilangan vazifaiarni amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi. Maktabgacha ta'lifning vazifasi – bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'nnaviy axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda billm olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lif jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'z fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydag'i «Maktabgacha ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4312-sonli qarori qabul qilindi. Prezident qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlangan va u quyidagilarni nazarda tutadi: maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish; maktabgacha ta'lif tizimiga innovatsiyalarini, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lif darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o'qitish asoslarini joriy etish:

Science (fan); Technology (texnologiya); Engineering (injeneriya); Art (san'at); Mathematics (matematika).

Ekspert va olimlar mazkur ta'lifni kelajak ta'limi deb e'tirof qilmoqdalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lif

muassasalarida ta'lif-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lif xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini jony etishni talab qiladi. Maktabgacha ta'iim tizimini takomillashtirish, ta'lif-tarbiya jarayonining tarblyachilar tomonidan to'g'ri tashkil etilishi, mas'ul shaxslar tomonidan uni nazorat qilirishining afzalligini ta'minlash, maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalarining oilada bola tarbiysi bilan shug'ullanishi uchun qulaylik yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, Maktabgacha ta'lif muassasasining «Ilk qadam» davlat o'quv dasturida MTM pedagog xodimlari uchun muhim maqsad va vazifalar belgilangan.

Ma'lumki, ta'lif-tarblya jarayonida maktabgacha ta'lif alohida bosqich bo'lib, bu davr – bola shaxsining jadal rivojlanish davri hisoblanadi. Chunki, bu davr bolalarning 3–7 yoshgacha bo'lgan shakllanish va rivojlanish davri bo'lib, unda bola shaxsi ilm, tafakkur, tasavvur, malaka va ko'nikmalarni yig'adi. Xuddi shu davrda bola shaxsining ko'rish, kuzatish, idrok etish, tasavvur va tafakkur qilishga o'rganish davrining eng shiddatli bosqichi hisoblanadi.

Oldinda tasviriy faoliyatning o'ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ulashish mahoratiga ega bo'la oladigan tarbiyachilarni yetishtirib chiqarish vazifasi turibdi.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining orni beqiyos. U chuqur billm va yuqori malakaga ega bo'lishi, buning uchun muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, o'zining ilmiy-nazariy saviyasini tinimsiz rivojlantirishi, ilg'or tajribalarga tayanishi kerak.

Qo'llanmani yaratishda maktabgacha ta'lif muassasalari pedagoglari uchun zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni berishga e'tibor qaratildi. Shunga ko'ra, qo'llanmada juda oddiy narsalar rasmini chizishdan boshlab, ko'proq mashq qilishga, hatto qo'llanmadan foydalanib, mustaqil holda rasm chizishni o'rganishgacha imkoniyat yaratildi.

Mazkur qo'llianma pedagoglar uchun rasm chizishga oid namunalar, ta'limiyl maqsad va vazifaga ega. Barcha namunalar oddiydan murakkabga qarab tuzilgan bo'lib, muallif ko'p yillik tajribasiga tayangan.

Qo'llanmaning yaratilishida metodist-olimlar – T.S. Komarova, T.G. Kazakova, I.A. Likova, S. Po'latova, M. Nurmatova, Sh.T. Hasanova, Yu.V. Ruzanova, N.V. Shaydurovalarning darslik va o'quv-metodik qo'llanmalaridan ijodiy foydalanildi. Shuningdek, kitobda videomashg'ulotlar QR-kodlar tizimi mavjud bo'lib, rasm chizishga o'rgatishning innovatsion usullari yoritilgan.



## QR-koddan foydalanish bo'yicha YO'RIQNOMA

1. O'quv qo'llanmadagi amaliy mashg'ulot videoroligini ko'rish uchun amaliy mashg'ulot shartli belgisi yonida joylashgan QR-kodini toping.



1-amaliy mashg'ulot.

Sovg'a uchun quticha yasash

2. "QR Code Reader" dasturini qurlimaga yuklab olish qoidasi:



Android tizimli smartfon va planshetlari uchun "Play Market" do'konidan yuklab olinadi.

Apple smartfon va planshetlari uchun "App Store" do'konidan yuklab olinadi.

Kompyuter va noutbuklar uchun "Google" tizimi orqali yuklab olinadi.



3. Smartfon, planshet, kompyuter va noutbuklarda darslikdagi amaliy mashg'ulot QR-kodini o'qlish qoidasi:



1. Darslikdagi QR-kodni "QR Code Reader" dasturi yordamida o'qing (сканировать).



2. Amaliy mashg'ulot videoroligi manzilini oching yoki ko'chirib oling.



3. Ko'rish tugmasini bosing.

## I BOB. MAK TABGACHA TA'LIMDA TASVIRIY FAOLIYAT METODOLOGIYASI

### 1.1. Maktabgacha ta'lurma tasviriy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari

Tasviriy faoliyati bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalari dasturi va maktabda tasviriy san'at dasturi bolalarda tevarak-atrofga nisbatan estetik munosabatni tarblyalash, ijodiy qobiliyat va tasvirlashni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Ularning maktabgacha ta'lim muassasasi mashg'ulotlarida, maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun zarur bo'lgan vazifalar hal etiladi. Rasm, applikatsiya, loy ishlari jarayonida bolalarda fikr yuritishning analiz, sintez, takrorlash, konkretlashtirish tizimlari shakllanadi. Shuningdek, bu jarayonlarda bolalar jamoada ishlashga, o'z harakatini o'rtoqlarining harakatiga bo'ysundirishga o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarning, o'quv faoliyatida zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarni shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyatning birlamchi yo'nalishi maktabgacha yoshdagি bolalarni badiiy-estetik tarblyalash hisoblanadi.

Bu yo'nalishning samarasи estetik yo'nalishning barcha vositalari (teatr, musiqa, badiiy adabiyot, rasm chizish, applikatsiya va boshq.) kompleks tarzda qo'llanilgandagina aniq bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasalanda o'tiladigan «Tasviriy faoliyat» mashg'ulotlari bolalarga beriladigan estetik tarbiya masalalarini hal etishda katta ahamlyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o'z xususiyatlga ko'ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg'ulotlarining barcha turlari bolalarda go'zallikni bilish uchun, borliqqa emotSIONAL-ESTETIK munosabatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi.

«Tasviriy faoliyat» mashg'ulotlari jarayonida:

- 1) badiiy didni tarbiyalash;
- 2) amaliy badiiy faoliyat va malakalarni rivojlantirish;
- 3) fantaziya, ijodiy fikrlash va tasavvur qilish, idrok qilishni rivojlantirish;
- 4) qo'lning aniq harakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirish;
- 5) kasbiy badiiy-ijodiy faoliyat kurtaklarining namoyon bo'lishi uchun imkon yaratish kabi ta'limly va tarbiyaviy masalalar hal etib boriladi.

Maktabgacha ta'lif muassasalari uchun ishlab chiqilgan «Ilk qadam» davlat o'quv dasturining tuzilishi va mazmuni tahlilidan ayonki, kichik guruhlardan boshlab eng ko'p vaqt tasviriy faoliyatga ajratilgan.

Agar tasviriy faoliyatning turlari

- rasm (2 soat),
- applikatsiya (0,5 soat),
- qurish-yasash (0,5 soat),
- loy ishini (1 soat) qo'shib hisoblasak, jami 4 soatni tashkil etadi.

Haftalik yuklama 12 soatni tashkil etishini e'tiborga oladigan bo'lsak, tasviriy faoliyat barcha faoliyatlarning uchdan blr qismini tashkil etadi.

Demak, tasviriy faoliyat integrativ mazmun kasb etuvchi eng katta bo'llm hisoblanadi hamda faoliyatning boshqa turlari bilan mantiqiy va didaktik bog'liqlikda amalga oshiriladi. Bu omil tasviriy faoliyat mashg'ulotlari mazmuni va metodikasini faoliyatning boshqa turlariga hamohang tarzda takomillashtirib borish lozimligini anglatadi.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, maktabda esa tasviriy san'atning turlari rang-tasvir, grafika, haykaltaroshlik va dekorativ san'at asarlari bliyan yanada chuqurroq tanishadilar. Maktabgacha ta'lif muassasalarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlari xilma-xil bo'lib, rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg'ulotlari hisoblanadi. Bu mashg'ulotlarning hammasiga katta ahamlyat beriladi. Boshlang'ich sinflarda ta'lif-tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli hal etilishi, maktabgacha ta'lif muassasalarida olib boriladigan tasvirlash faoliyati mashg'ulotlari bilan uzviy ravishda bog'liq.

Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida, qalam hamda mo'yqalamdan erkin foydalanishga, o'z xarakter va qo'l kuchlarini idora etishga o'rganadilar. Bu esa, malakanegallash, qo'lni yengil, erkin va bir tekisda harakat qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Bolalar turli shakl, kattalik, proporsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga qarab yo'nalishni saqlash zarurligiga, predmetning kattaligiga mos ravishda harakatlanishga, materialdan tartibli foydalanishga, ularni toza saqlashga, faqat ziarur materiallardan va ularni ishlatish yo'llarini rejalashtirishga o'rganadilar. Bu mashg'ulotlar bolalarda diqqatni va ko'rish xotirasini rivojlantiradi.


Maktabgacha ta'lif muassasalari tayyorlov guruhida naturaga qarab rasm chizish yoki tasvirlashga nisbatan talablar oshadi va bu talablar maktab talabiga yaqinlashadi. Naturaga qarab tasvirlashda ishning ketma-ketligi ko'rsatilib, tayyorlov va katta guruhda o'rganishning boshlang'ich bosqichidagina amalga oshiriladi. Bolalar naturani tahlil qilishga, butun umumiy shaklni xomaki qog'ozga tushirib

## 1.2. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan ko'rgazmali metod va o'rgatish usullari

Kuzatish metodi tasviriy faoliyatga o'rgatish tizimining umumly asosini tashkil qiladi. Chunki, u atrof-muhitni o'rganishda, bilish hamda uni aks ettirishda muhlm omil sifatida xizmat qlladi. Bolalarda kuzatish, atrof-olam ko'rinishi bilan aloqa o'rnatish, umumlylik va yakkalikni ajratish malakasi qanchalik rivojlangan bo'lsa, bolalar ijodiy qobiliyati shuncha rivojlanadi. Lekin kuzatishning o'zi ko'rganlarini tasvirlab berishga to'la imkon bermaydi. Bolalarni tasvirlashning muhlm usullariga, turli tasvirlash materlallaridan foydalanish yo'liariga o'rgatish zarur. Ko'rgazmali metod va o'rgatish usullariga naturadan, rasm reproduksiyalaridan, namunadan, boshqa ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish, alohida predmetlarni ko'rib chiqish, tarbiyachi tomonidan tasvirlash usullarini ko'rsatib berish, bolalarning bajargan ishlarini mashg'ulot yakunida ko'rsatish, ularni baholash kradи.

**Naturadan foydalanish.** Tasviriy san'atda naturadan foydalanish deganda, kuzatish asosida predmet yoki ko'rinishni tasvirlash tushuniladi. Naturadan foydalanib ishlanganda chizayotgan bolaning ko'ziga nisbatan naturaning qay holatda turganini hlsobga olgan holda ma'lum blr nuqtayi nazardan turib, predmet ko'rinishi tasvirlanadi. Bu naturadan olib tasvirlash xususiyati mashg'ulot mobaynida o'zgacha idrokning rivojlanishiga ko'mak beradi. Bunda asosiysi bolaning idroki bo'llib, tekislikda tasvirlangan predmet (rasm, applikatsiya) faqat blr tomonidan idrok qilinadi; loydan buyum yasaganda va qurish-yasashda bolalarda naturani o'girib ko'rish hamda hajm-shaklni turli xil burilishda tahlil qilish imkoni bo'lishi kerak. Maktabgacha yoshdagи bolalar bllan ishlashda naturadan foydalanishning ayrim xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.





Natura xotira ishini yengillashtiradi, negaki tasvirlash jarayoni idrok bilan birlashadi, predmetning shaklini, tuzilishini, rangini to'g'ri tushunib, yetkazlb bera olishga yordam beradi. 4–5 yoshdagi maktabgacha ta'llim bolalarining qobiliyatlaridan qat'i nazar, maktab ta'lif oluvchisi yoki rassomning natura bilan ishlashiga nisbatan qaraganda, bolalarning tasvirlangan obyektni tahlli qilishlari, shu natura bllan ishlashlarining o'ziga xos farqi bor. Natura maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar uchun sodda shaklli, aniq chizmali bo'lishi kerak. Masalan: bolalar mashinani yon tomonidan, qo'g'irchoqni oldidan chizadilar va bunda hajmini yetkazib berolmaydilar. Agar guruhda bolalar soni ko'p bo'lsa, barchasiga teng ko'rinishi uchun 2–3 ta blr xil predmet qo'yiladi. Tarbiyachi naturani bolalar bilan birgalikda qismlarga ajratib ko'rib chiqadi, bunda u tahlil jarayonini osonlashtirib, o'z so'zları, harakatlari bilan yo'naltiradi. Bu jarayon ma'lum bir idrok madaniyatini, rivojlangan analitik fikr yuritishni talab qlladi. Bunday ko'nikmalar bolalarda 5–6 yoshda rivojlana boshlaydi. Bu yoshda bolalar tasvirlayotgan ishlarini naturaga nisbatan taqqoslashga urinadilar. Masalan: katta guruhda naturadagi archa shoxlarini tasvirlayotganda, bolalar shoxni fazoda joylashtiradilar (vertikal yoki qiya holatda) va shoxdagi shoxchalarning sonini, o'lchamlarini chap va o'ng tomonidan, to'q yoki och rang bilan chizadilar. Natura sifatida tirik qushlar, hayvonlardan foydalanish mumkin emas. Ularning harakatiari, tovushlari bolalarni rasm chizishdan chalg'itadi, bolalarning predmetni kerakli holatda idrok qilishlariga, diqqatlarini bir nuqtaga qaratishga xalaqit beradi. Shunday qilib, o'rgatish metodi sifatida naturadan foydalanish tasvirlashning butun jarayonini o'z ichiga mujassamlashtiradi:



- predmetining birlamchi tahlill;
- tasvirni naturaga nisbatan taqqoslash;
- natijaning shaklini, holatini, rangini taqqoslash;
- natijadagi rasm va naturani taqqoslash yo'li bilan baholash.

**Mashg'ulotda predmetlarni ko'rib chiqish.** Kichik va o'rta guruhlarda ko'pincha mashg'ulot boshida alohida predmetlar ko'rsatiladi. Bolalar diqqatini topshiriqqa qaratish va tasavvurlarini jonlantirish maqsadida bolalarga koptok, lenta (tasma), belkurak va shu kabilar ko'rsatiladi. Masalan, kichik yosh guruhda «Bayroqchani bo'yash» mavzusida, bolalarga bayroqchalarni berib hilpiratish va uni ko'rib chiqish tavsiya etiladi. Bayroq tushirilgan shaklning ichini bo'yash taklif qilinadi. Bolalarga gullarni kuzatish taklif etilib, doira shakllarda gul rasmini tasvirlash taklif etiladi.

Mashg'ulotning qolgan vaqtida esa, bolalar o'z tasavvurlari asosida chizadilar. Ular rasmlarini ko'rgan predmetlariga nisbatan taqqoslay olmaydilar va predmetlarni idrok qilishlariga qaytib murojaat qilmaydilar. Katta guruhda ham predmetlarni ko'rib chiqish uchun imkon bo'ladi. Masalan: «Uch ayiq» ertagi mavzusi bo'yicha rasm chizishdan yoki buyum yasashdan avval, tarbiyachi bolalarga o'yinchoq ayiqni ko'rib chiqishni, predmet shaklining asosiy

xususiyatlarini va ayrim qismlarning proporsiya nisbatlarini aniqlashni, so'ng predmetning burilishiga nisbatan shu ayrim qismlarning o'zgarishini kuzatishni taklif qiladi. Bolalar rasm chizishda ertakning qaysi epizodini tanlasalar, ayiqni ham shu epizodga nisbatan mos holatda tasvirlaydilar.




[www.youtube.com/watch?v=KNPfeEA1Rc](https://www.youtube.com/watch?v=KNPfeEA1Rc)



**Namunadan foydalanish.** Namunadan foydalanish ko'proq o'rgatish usuliga taalluqlidir. Bolalarning umumiy estetik didlarini oshirish uchun chiroyli predmetlarni tomosha qildirish kerak. Masalan: gllamlar, vazalar, kashtachilik buyumlari va hokazo. Dekorativ rasm chizish mashg'ulotlarida bolalar ko'rgan predmetlarini aks ettirib, ulardagi naqshlarni qayta chizibglina qolmay, balki mustaqil ravishda naqshlarni aks ettirib, yorqin rang va shakllarni moslashtirib chizishni ham o'rganadilar. Buning uchun boshlang'ich bosqichda bolalar namunadan naqsh elementlarini chizib olib, keyInchalik elementlarning o'rnni va rangini o'zgartirib boradilar. Bolalar ma'lum bir malakaga ega bo'lganlardan keyin, bir necha xil namunalarni ularning ixtiyoriga havola etish mumkin. Ba'zi mashg'ulotlarda tarbiyachi namunani qo'yadi va bolalar ko'rib chiqib, tanishib, tarbiyachining ko'rsatmasisiz mustaqil ravishda ishlaydilar. Predmetli rasm chizish yoki buyum yasashda namuna ko'chirib olish uchun emas, balki tasvirlanayotgan predmet haqidagi tasavvurni aniqlash uchun qo'yiladi.

**Rasmlardan foydalanish.** Rasmlar asosan bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini aniqlash va tasviriy usullar, vositalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. Pedagog va psixologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, 2 yoshdagи bolalar rasmni predmet tasviri sifatida tushunadilar. Lekin rasmdagi qahramonlar o'rtasidagi bog'liqlikni, ya'nи harakatlarni tushunish kechroq, 4–5 yoshlarda yuzaga keladi. Masalan: 2 yoshli bola rasmdagi hayvonlarni «turibdi» deydi, 4–5 yoshdagisi esa, «gapiryapti», «yuryapti», «kelyapti» va hokazo deydi. Bolalarning kuzatishlari ko'pincha qisqa muddatli bo'ladi (masalan: shahar sharoitida hayvonlarni kuzatish).



Shuning uchun rasmlardan foydalanish qayta idrok qilishga va keylning tasvir uchun xarakterli bo'lgan eng asosiysini aniqlashga yordam beradi. Rasmlar ana shunday sharoitlarda kerak bo'ladi: kerakli predmet qo'l ostida yo'q paytida yoki bo'lmasa, tekislikda tasvirlashning ayrim usullari bilan tanishtirish uchun xizmat qiladl. Masalan: tarbiyachi bolalarga uzoqlashgan predmetni tushuntinsh uchun rasmni ko'rsatadi. Hayotda bolalar shu uzoqdagi predmetlarni bir chiziqda joylashgan deb idrok qilsalar, rasmda tarbiyachi perdmelarning uzoqlashganini ko'rsatib, tushuntirib beradi, 6 yoshdan boshlab shu maqsad bilan rasmdan foydalanish mumkin. Rasmni ko'ra turib, bola yerni bir chiziq bilan emas, balki keng yer bo'lagi bilan chizishni, uzoqlashayotgan predmetlar yuqoriqroqda, yaqindagilari pastroqda va qog'oz chetiga joylashishini tushunib yetadi. Rasm mashg'ulot davomida bolalar oldida qoldirilsa, bolalar tushunib yetmay, nusxa ko'chirishga o'r ganib qoladilar. Bu yoshda esa, bolalar nusxa ko'chinish bilan emas, balki ijod bilan rasm chizishlari kerak. Ba'zida mashg'ulot davomida bolalarga aynim qismalarni anlqlab olish uchun rasmni ko'rsatish kerak bo'ladi. Keyin esa rasm olib qo'yładi, chunki bolalar nusxa ko'chira boshlaydilar.



ostida birlashtirishni bilish kerak. Ana shu chizish usullari mashina, poyezd va boshqa to'g'ri to'rburchakli predmetlarni chizishda qo'llaniladi. Tarbiyachining tasvirlash vositalarini ko'rsatib berishi ko'rgazmali amaliy usul bo'lib, bu usul bolalarni kerakli shaklini aniq tajriba asosida ongli ravishda chizishga o'rgatadi.


Ko'rsatma ikki turda bo'ladi:

- imo-ishora bilan ko'rsatish;
- chizish usuli bilan ko'rsatish.

**Tarbiyachi tomonidan ishlash usulini ko'rsatib berish.** Maktabgacha ta'llim muassasasida ta'llim jarayonida bolalar o'r ganishi kerak bo'lgan tasvirlash ko'nikma va malakalar o'lchamini, shuningdek, keng bo'limgan doiradagi malakalar o'lchamini aniqlab beradi. Keng bo'limgan doiradagi malakaga ega bo'lgan bola turli xil predmetlarni tasvirlay oladi. Masalan, uyni chizish uchun to'g'ri to'rburchak shaklini chizishni bilish, ya'ni chiziqlarni to'g'ri burchak

Har ikkala turda ham ko'rsatma og'zaki tushuntirish yo'li bilan olib boriladi. Imo-ishora bilan predmetning qog'ozda joylashishi tushuntirladi. Qo'l yoki qalamning qog'oz bo'ylab harakati, hatto 3–4 yoshli bolalar uchun yetarli bo'ladi. Bola imo-ishora orqali xotirasidagi qiyin bo'lмаган predmetning asosiy shaklini yoki uning alohida qismlarini eslaydi. Masalan, kichik yosh guruhdha «Favora» rasmini chizishda bolalar tarbiyachining qaysi harakat ishorasi orqali idrok qllgan bo'lsalar, xuddi shu harakat-ishorani tarbiyachi mashg'ulotda qaytarsa, ular ko'rganlari bilan chizmoqchi bo'lganlari o'rtaida aloqadorlikni ongli ravishda sezadilar. Bolalar uy qurilishini kuzatayotganlarida tarbiyachi qurilayotgan uyning korpus chiziqlarining tepaga qarab qurilayotganligini harakatlari bilan ko'rsatadi, xuddi shu harakatlarni mashg'ulot boshida qaytarar ekan, bolalar xotirasidagi ko'rganlarini qayta esga tushiradi. Ishora bilan bola xotirasidagi predmet shaklini eslashga hamda chizish mobaynida bolaning qo'l harakatlarining yo'nalishi aniqlanadi. Bolaning yoshi qancha kichik bo'lsa, uni chizishga o'rgatishda qo'l harakatlari ishorasini ko'rsatish shunchalik muhim rol o'ynaydi. Kichik guruhdagi bolaning harakatlari yaxshi rivojlanmagan bo'lsa va bola o'z harakatlarini boshqara olmasa, tarbiyachi bolaning qo'lini ushlab, birgalikda harakat bilan cbizadi. Bunday ish usuli shu harakatlarni bolaning o'zi his qilishi uchun qo'lianiladi. Agar predmetning shakli murakkab bo'lmasa, ishora bilan butun predmetni chizish mumkin. Masalan: koptok, kitob yoki olma shaklining qismlarini, archa shoxining joylashishi, qush bo'ynining qiyaligi. Tarbiyachining ko'rsatma berishi mashg'ulotda qanday topshiriq berilishiga bog'liq. Mashg'ulotda predmet shakli to'g'ri harakatlar bilan chizib ko'rsatiladi. Bu asosan kichik guruhdha o'tkaziladi. Masalan: bolalarga yumaloq shakldagi predmetlarni chizishni o'rgatish uchun tarbiyachi koptok yoki olmani o'z harakatlarini tushuntirgan holda chizib ko'rsatadi.

Agar predmetni tasvirlayotganda uning qismlarini aniq ketma-ketlikda chizish kerak bo'lsa, tarbiyachi predmetni boshidan yakunliga qadar chizib ko'rsatadi. Faqat bunda bolalarning diqqatini jalb qilish uchun tarbiyachi bolalarga «Endi nlmani chizish kerak?» degan savolni beradi. Katta guruhdagi bolalarga ko'pincha qisman ko'rsatmalar berish o'rini bo'ladi. Bolalarga hali chizishni bilmaydigan predmetining biror qismini yoki alohida elementini chizishda ko'rsatmalar beriladi. Masalan, 4–5 yoshli bolalar daraxtning tanasini uchburchak shaklda, keng asos bilan chizadilar. Bu ko'pincha tarbiyachining og'zaki tushuntirishidan kelib chiqadigan kamchilikdir. «Daraxt tanasining yuqori qismi tor, quyi qismi esa keng bo'ladi». Og'zaki aytib berish bilan birga qo'l harakatlari bilan chizib ko'rsatish lozim. Katta guruhdha esa, «Chiroyli uy» mavzusida bolalar rasm chizayotganlarida, tarbiyachi doskada



Uyning oyna-eshlari turli xil shaklda bo'lishini ko'rsatib beradi. Bunday ko'rsatma bolaning rasmini umumly chizmada hech qanchalik chegaralamaydi. Malakalarni mustahkamlash uchun qaytanilayotgan mashqlarda, so'ng ulardan mustaqil ravishda foydalanishda ko'rsatma faqatgina individual ravishda, ma'lum bir ko'nikmaga ega bo'lмаган bolalarga beriladi. Doimiy ravishda ko'rsatma berish bolalarning sustlashishiga va fikrlash jarayonlarining tormozlanishiga olib keladi. Chunki bolalar tarbiyachining ko'rsatmasini va yordamini kutib, o'rganib qoladilar. Tarbiyachining ko'rsatmasi yangi texnlik usullarri tushuntirishdagina kerak.



Bolalar ishlarini tahlil qilish. Bolalar o'zlarini bajargan yoki do'stlan bajargan ishni mustaqil ravishda tahlil qilib, baho berishlari 5 yoshga borib to'la shakllanadi. Klchik guruhdagi bolalar o'z harakatlarini va uning natijalarini nazorat qila olmaydilar, shuning uchun ular ish bajarayotgan vaqtida mammun bo'lgan bo'lsalar, uning natijasidan mammun bo'lish uchun tarbiyachidan maqtov eshitishni kutadilar. Klchik guruhda tarbiyachi bolalarning ishlanini baholayotganda tahlil qilmaydi, balki 4–5 ta yaxshi bajarilgan ishlarni bolalarga ko'rsatadi. Shu bilan birga qolgan bolalarning ishlarini ham maqtaydi, chunki maqtov bolalarning ushbu

mashg'ulotga nisbatan qiziqishi ortishiga yordam beradi. Rasmlarni ko'rsatishdan maqsad esa, ularni ish natijasiga jalb qilishdir. O'rta va katta guruhlarda tarbiyachi bolalarning ishlarini ko'rsatadi va kamchiliklarini aytib o'tadi. Bolalar kamchiliklarini qanchalik ko'ra bilsalar, keylning rasmlarini shunchalik ongli ravishda chizib boradilar. Mashg'ulot yakunida tarbiyachi bolalar ishlaridan birini olib, ijobji



<https://youtu.be/igqWx2wzeOY>

tomonlarini ko'rsatadi. Masalan: ranglanni yaxshi tanlagani, och rang bilan to'q rang yonma-yon yaxshi ko'rinishi, chiziqlarning ozoda va aniq chizilganligi va hokazo. Agar kamchiliklar ko'pchilik bolalarda uchrasa, shu kamchilikni bartaraf qillish uchun ularga savol beradi va diqqatini qaratadi. Agar kamchilik bir bolada bo'lsa, u holda yakkama-yakka tushuntirish ma'qul, chunki jamoa oldida bir bolaning ishini tahlil qilish, faqat shu bolaning o'zi uchungina tushunarli bo'ladi. Katta guruhda tahlliga barcha bolalarni jalg qillish zarur. Ba'zida esa, tarbiyachining o'zi baho beradi. Masalan: yaxshi chizmaydigan bolaning ishldagi kamchiliklarni boshqa bolalar aytishlarini tarbiyachi oldindan bila turib, o'zi avval shu bola bajargan ishning ijobiy tomonlarini aytib o'tadi. Vaqtin tejash maqsadida tarbiyachi 5–6 ta bolaning ishini olib, tahlil qiladi, faqat har mashg'ulotda bir xil bolalarning ishlarni ollb baholash yaramaydi. Chunki dolmiy maqtov asosida o'sha bolalarda haddan tashqari ishonch, boshqalardan ajralib turish rivojlanadi. O'ta qobiliyatli bolalar bilan ularning layoqatlarini hisobga olgan holda, alohida ish olib boriladi. Ba'zida tarbiyachi tahlil qilish uchun bajargan ishlarni bolalarning o'zlariga topshiradi. Bunda barcha bolalarning ishlari stolga yoyiladi yoki stendga mahkamlanadi va bolalar o'zlar eng yaxshi bajargan ishlarni tanlaydilar. So'ng tarbiyachi tahlil qiladi. Bolalarga ko'proq (6 yoshda) o'z ishini naturaga nisbatan o'zi baholashga imkon berish kerak. Chunki bola o'z ishiga hamda do'stlarining ishlaringa tanqldiy tomondan baho berishga o'rganadi.

**Og'zaki metod va o'rgatish usullari.** Tasviriy faoliyat mashg'uloti har doim tarbiyachining bolalar bilan suhbatidan boshlanadi. Suhbatning maqsadi bolalar xotirasidagi avvalgi idrok qilingan obrazlarni qayta esga olish va mashg'ulotga bo'lgan qiziqishni uyg'otishdan iborat. Bolalar o'z tasavvurlari asosida ijod qiladigan mashg'ulotlarda suhbatning o'rni kattadir.

Suhbat qisqa, mazmunli va his-hayajonli bo'lishi kerak. Tarbiyachi asosiy diqqatini mashg'ulotda qilinadigan ishga qaratadi. Bolalarning mavzu bo'yicha yoki yangi tasvirlash usullari haqidagi tasavvurlarini aniqlab olishdan avval, suhbat mobaynida yoki suhbatdan keyin tarbiyachi kerakli predmet yoki rasmni ko'rsatadi. Topshiriqni boshlashdan avval esa bolalarga ish usulini ko'rsatadi.

**Suhbat** – o'rgatish metodi sifatida 4–7 yoshli bolalar bilan ishslashda asosiy rol o'ynaydi. Kichik guruhlarda suhbat bolalar tasvirlashlari kerak bo'lgan predmetni eslatish uchun yoki yangi ish usulini o'rgatlsh uchun kerak bo'ladi. Bunday hollarda suhbat tasvirlashning maqsad va vazifalarini bolalarga yaxshiroq tushuntirish uchun xizmat qiladi. Bolalarning tasavvurlari va hissiyotlari tez jonlanib, ijodiy kayfiyatlarini tez yo'qolib qolmasligi uchun suhbat metod sifatida ham, usul sifatida ham qisqa va 3–5 daqlqadan oshmasligi kerak. Yaxshi uyuştirilgan suhbat mashg'ulotda maqsadga yaxshi erishish uchun qulay sharoit yaratadi.



## Badiiy adabiyot obrazlaridan foydalanish.

Badiiy obrazni o'zida mujassamlashtirgan nutq o'zliga yarasha ko'rgazmalikka egadir. Masalan: she'r, hikoya, topishmoq va hokazo. Ifodali o'qilgan badiiy asar ijodiy kayfiyatning oshishiga, tafakkurning, xayolning faol ishlashiga yordam beradi. Shu maqsad bilan badiiy so'zdan faqatgina ifodali o'qish mashg'ulotlarida emas, balki predmetlarni idrok qilgandan so'ng tasvirlash jarayonlarida ham

foydalaniladi. Barcha yosh guruhlarda mashg'ulotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda topishmoq aytishdan boshlash mumkin. Masalan, «Boshi taroq, dum o'roq». Bu topishmoq orqali xo'rozning chlroyli toji, dumining betakrorligi kabi qismlari alohida ta'riflanadi. Ba'zida kichik she'rlar yoki asarlardan parcha o'qish ham mumkin. Agar kerak bo'lsa, asarni o'qish bilan birga bolalarga og'zaki obrazga qo'shib natura yoki predmet tasviri bolalarga ko'rsatiladi.

Rasm chizish, loydan buyum yasash mashg'ulotlarida badily asar o'qish har doim ham qo'l kelavermaydi, uni boshqa o'rgatish usuli bilan almashtirgan ma'qul. Chunki bola og'zaki so'zni eshitgandan ko'ra naturani ko'rganida ko'proq jonlanadi. Tarbiyachi badiiy obrazni juda ham ehtiyojkorlik bilan tanlashi lozim. Negaki, to'g'ri tanlangan asar predmetni, qiyofalarni ko'nish idrokini o'z ichiga oladi (rangini, shaklini, holatini). Masalan: «Bo'g'irsoq» ertagi orqali bo'g'irsoqning obrazi, «Oltin baliq» ertagi orqali esa ballq obrazi yanada yorqinroq tasvirlanadi.

**Tarbiyachining ko'rsatmalari va tushunchalari.** Tarbiyachining ko'rsatmalari barcha ko'rgazmali usullarni o'z ichiga oladi va mustaqil o'rgatish usul sifatida xizmat qiladi. Kichik yoshdag'i bog'cha bolalari uchun og'zaki ko'rsatmalar kamdan kam beriladi. Bolalarning tasvirlash malakalari yetarli bo'lmay, sezgi analizatorining ishtirokisiz tarbiyachining ko'rsatmasini tushunmaydilar (ko'rish, eshitish, qo'l, ta'm bilish sezgilari). Agar bolalar mustahkam ko'nikmaga ega bo'lsalar, tarbiyachi ko'rgazmali ko'rsatmasiz tushuntirishi mumkin. 5–6 yoshli bolalar uchun blr so'zning o'zi xotiradagi chizish usuli haqlagi tasavvurni eslashga yordam beradi.

Tarbiyachining ko'rsatmalari butun guruh bolalariga va alohida bolalarga qaratilgan bo'lishi mumkin. Butun guruh uchun beriladigan ko'rsatmalar mashg'ulotning boshida beriladi. Ular qisqa, lo'nda, tushunarli bo'lishi kerak. O'rta va katta guruhlarda tarbiyachi bolalar topshiriqlarni qanday o'zlashtirganliklarini bilish uchun biror boladan topshiriqning ketma-ketligini va qaysi usullardan foydalanib bajarish kerakligini so'raydi. Bunday qayta so'rash

yaxshi tushunishlariga yordam beradi. Kichik guruhda tushuntirib, ko'rsatgandan so'ng, tarbiyachi yana ishni nmadan boshlash kerakligini qayta esga soladi. Katta guruhda esa bolalarga: nmani chizishini yoki yasashini, asosiysi, nimadan iborat, predmetlarni qanday joylashtirish kerakligi haqlida o'ylashni taklif qiladi. Bolalar ishga kirishgandan so'ng, tarbiyachi har blr bolaga ko'rsatma berishga kirishmasdan, balki ishga kirisha olmayotgan bolalarga nima tushunarli bo'lmanni so'rashi lozim, bunday bolalarga qaytadan vazifa tushuntirliadi va ko'rsatma beriladi.

Hamma bolalarga ham ko'rsatma berish zarur emas. Ko'rsatma ikkilanuvchan, uyatchan, o'ziga ishonmaydigan bolalarga kerak. Yuzaga keladigan qiyinchiliklarni tarbiyachi har dolm ham oldindan aytib berishi shart emas. Ba'zi bir bolalarning o'zi mustaqil bajarishiga tarbiyachining ko'zi yetsa, u holda tarbiyachi ko'rsatma berib o'tirmaydi. Asosiysi, tasviriy faoliyatda bola qiyinchilikka duch kelib, uni yechishga yo'l topa olishi kerak. Ko'rsatma shakllari hamma bolalar uchun har xil bo'lishi lozim. Ayrlm bolalarga maqtovli ohangda ko'rsatma berilsa, o'ziga ishongan bolalarga esa ko'proq talab qo'yiladi. Tarbiyachining ko'rsatmalari to'g'ridan to'g'ri, buyruq shaklida bo'lishi kerak emas. U bolani o'ylashga, fikrlashga undashi kerak. Bolaning qilgan xatosini ko'rsatish bilan birga, tasvirning ma'nosi o'zgarayotganiga diqqatini qaratish lozim. Masalan: «Qizchaning ko'ylagi xuddi g'ijimga o'xshaydi» (yaxshi bo'yalmagan), «Daraxtlar yiqilib ketayotganga o'xshaydi» (yaxshi joylashtirilmagan), «Bu odam biram katta, ammo uyga klra olmayapti». Shu bilan birga xatoni qanday qilib to'g'rilash kerakligini aytib bermaslik lozim. Bolaning o'zi fikr yuritsin. Ko'rsatma yoqimli tovush bllan berilishi bolalarning qiziqishini orttiradi. Individual ko'rsatmalar boshqa bolalarning diqqatini jalb qlimasligi uchun pastroq tovush bilan beriladi. Mashq'ulot davomida qachon ko'rsatma beriladi, qachonki, ko'pchilik bolalar xatoga yo'l qo'ysalar va tarblyachi barcha bolalarning diqqatini o'ziga jalb qiladi va qaytadan tushuntiradi. Bunday mashq'ulot davomida berliadigan ko'rsatmalarni kamroq berish kerak, negaki u ijodiy faoliyatga xalaqt beradi.

**O'yinli o'rgatish usullari.** Tasviriy faoliyatda o'yinlardan foydalanish ko'rgazmali amaliy o'rgatish usuliga kiradi. Bolaning yoshi qancha klchik bo'lsa, o'yin uning tarbiyasida shuncha katta o'r'in tutadi. O'yin usullari qo'yilgan masalaga nisbatan bolalarning diqqatini yaxshi jalb qiladi va xayol bilan tafakkurning ishini yengillashtiradi. Kichik yoshdagи bolalar uchun o'yin mashqlaridan rasm chizishda keng foydalaniladi. Maqsad bolalarni oddiy chiziqli shakllarni chizishga o'rgatish va qo'l harakatlarini rivojlantirishdan iborat. Bolalar tarbiyachining ortidan qo'llari

bilan havoda, so'ng qog'ozda turli chiziqlarni chizadilar. Tarbiyachi: «bolakay yo'lida chopib ketyapti», «mashina yurib ketyapti» va hokazo, degan iboralar bilan tushuncha hosil qiladi. Obraz bilan harakatning birlashuviga bola tomonidan chiziqlarni va sodda shakllarni tasvirlash malakasiga ega bo'llshni ancha tezlatadi. Kichik guruuhda predmetlarni tasvirlashda ham o'yin usullaridan foydalanlladi. Masalan: mehmonga qo'g'irchoq keladi va bolalar unga noz-ne'matlar yasaydilar, non, kulcha, shirinlik va hokazo. Bunday ish mobaynida bolalar sharni yassilashga urinadilar. O'rta guruuhda bolalar ayiqni yumshoq o'yinchog'iga qarab chizishlari kerak. Shunda qiziqarli o'yin o'tkazish uchun, ayiqcha eshikni taqillatadi, so'ng bolalar bilan salomlashib, ulardan uning rasmini chizib berishlarini iltimos qiladi. Mashg'ulot yakunida u rasmlarni baholashda «qatnashadi» va yaxshi rasmlarni o'zi «tanlaydi».

Olti yoshli bolalar bilan ham tasvirlash faoliyati davomida o'yinlardan foydalanlladi. Lekin kichik guruuhga qaraganda bu o'ylnlar ancha kamayadi. Masalan: sayrda bolalar o'zlarining fotoapparatlari bilan atrofni rasmga oladilar: daraxtlar, qushlar, hayvonlar va hokazo. Bog'chaga keilb, o'zları olgan «rasmlarni proyavka qiladilar va rasmlarni chlqaradilar», ya'ni ko'rganlarini qog'ozga tushiradilar. Tarbiyachi o'yindan foydalanganida butun mashg'ulotni o'ylnga aylantirib yubormasligi kerak, chunki bu – bolalarning diqqatini topshirqni bajarishdan tortib, ko'nikma, malakalarga ega bo'lish mavzusini buzadi.

### 1.3. Maktabgacha ta'limdi amally metodlarning qo'llanllishi

Tasviriy san'atga o'rgatish mobaynida bolalar turli materlallardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Rasm chizish, loydan buyum yasash, applikatsiya turli metodlardan va o'rgatish usullaridan foydalanishni, shu jumladan bolalarda ko'nikma malakalarini hosil qiladigan amaliy metodlardan ham foydalanishni talab qiladi. Amaliy metodlardan asosiysi, texnik va ba'zan tasviriy malakalarni o'rgatadigan mashqlardir. Klchik guruuhda bu mashqlar bolalar uchun sezilarli emas, ular yumaloq shaklli predmetlarni yasashni o'rganib, koptok, olma, apelsin va shu kabi predmetlarni yasaydilar. Yo'llarni, yomg'irlarni chizib, ular gorizontal va vertikal chiziqlarni chizishni mashq qiladilar. Katta guruhdagagi bolalar oldida esa to'g'ridan to'g'ri ma'lum bir topshiriq qo'yiladi, chiroyli va to'g'ri shtrix bilan chizishga o'rganish. Shtrixlab chizish ko'rsatib berilgandan so'ng, bolalar murakkab bo'lmagan predmet konturini (masalan: uy, qo'ziqorin, olma) chizib olib, uni ozoda qilib bo'yamaslik rasmni xunuk qilib qo'yishini biladilar va sidqidildan mashq qiladilar.

Mashqlardan tasviriy xarakterga ega bo'lgan topshiriplarni tushunish uchun foydalaniladi. Masalan, tarbiyachi bir chiziq bilan inson boshining yonlamacha qiyofasini chizishni ko'rsatib bergenidan so'ng, bolalar bir necha marta odam boshining rasmini qayta-qayta chizadilar. Tarbiyachining vazifasi bolalarning tasviriy faoliyatini shunday tashkil qillish kerakki, u faol va ijodiy bo'lsin. Har bir mashg'ulot faqat didaktik vazifasini emas, ya'ni ma'lum bir predmetni tasvirlashni o'rgatish emas, balki boladan ishni mustaqil bajarishni ham talab qiladi. Shu maqsad bilan tarbiyachi turli xil usullardan foydalanishi mumkin: maslahat, maqtov, topshiriqni bajarish usulining ko'rsatmasi (to'liq bo'limgan), o'yinchoq ko'rsatmasi, eslatma va shu kabilalar. Bolani shunday holatga qo'yish kerakki, u o'ylagan o'yini bajarishi uchun o'zi yo'l topsin. Shunday qiiib, u yoki bu metod va usullarni tanlash quyidagilarga bog'liq:

- mashg'ulot mazmuniga va mashg'ulot oldida turgan maqsadga, shu bilan birga, tasviriy faoliyatning vazifalariga;
- bolalarning yoshi va rivojlanish darajasiga;
- bolalar foydalanadigan tasvirlash materiallariga.

Atrof olam haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash maqsadidagi mashg'ulotlarda, asosan, og'zaki metodlar qo'llaniladi: suhbatlar, bolalarning ko'rganlarini xotiradan qayta eslash uchun yordam beradigan savollar berlladi. Tasviriy faoliyatning har xil ko'rinishlarida o'rgatish usullari turllchadir, chunki bir obraz turll vositalar yordamida vujudga keltiriladi. Masalan: mazmunli mavzularda kompozlitsiyaga o'rgatish vazifasi illustratsiyalarga qarab tushuntiriladi, uzoqlashayotgan predmetlar yuqoriroqda, yaqindagilari esa pastroqda chizlladil. Loydan buyum yasaganda esa, shakllar ularning holatiga qarab joylashtiriladi; yonma-yon yoki ketma-ket va hokazo. Bu yerda alohida tushuncha yoki ko'rsatma berish shart emas. Har blr usuldan o'ylab, mashg'ulot oldida turgan vazifalarga nisbatan, dasturda berilgan mashg'ulotning mazmuniga nisbatan va asosan, ushbu guruh bolalarining qay darajada rivojlanganligini hisobga olgan holda foydalanish kerak. Mashg'ulotda alohida metod va usullar ko'rgazmali va og'zakilari o'zaro qo'shiladi, mujassamlashtiriladi va blr-biriga umumiyligi ta'lim jarayonida bog'lanadi. Ko'rgazmalilik bolalar tasviriy faoliyatining moddiy hissiy asosini yangilaydi, so'z esa to'g'ri tasavvurni, tahlilni, idrok qilinganlarni va tasvirlayotganlarini umumlashtirishga yordam beradi.

### **Turli guruhlarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini tashkil qilish.**

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari – bu rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg'ulotlaridir. Bu mashg'ulotlar muktabgacha ta'lim muassasalarining barcha guruhlarida aniq blr vaqtida, kun tartibi asosida uyushtiriladi.

Kichik guruhda yilning boshida uncha katta bo'lmagan guruhlar bilan, yilning ikkinchi yarmidan boshlab butun blr guruh bilan uyushtiriladi. Kichik guruhda mashg'ulotlar yilning birinchi yarmida 5–7 daqiqadan asta-sekin 10–15 daqiqagacha cho'zib boriladi.

Kichik guruhda 10–12 daqiqagacha;

O'rta guruhda 12–15 daqiqagacha;

Katta guruhda 15–25 daqiqa;

Tayyorlov guruhda – 35 daqiqa o'tkaziladi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli uyuşdırish, unga zarur bo'lgan materiallarni o'z vaqtida tayyorlashga ham bog'liq.

Bu tayyorgarlik ishlari quyidagilardan iborat:

1. Tarbiyachi rasm va applikatsiya mashg'uloti uchun kerakli kattalikdagi va rangdagi qog'oz varaqlarini tayyorlaydi (tasvirlanadigan predmetning tuzilishiga ko'ra). Qog'oz varag'inining orqa tomoniga oldindan bolalarning ismi, familiyasi, mashg'ulot o'tkaziladigan sana yozib qo'yiladi.
2. Tarbiyachi oldindan qalam uchlarini ochib qo'yadi (albatta 4–5 ta qalam ortiqcha qilib tayyorlab qo'yiladi).
3. Katta tayyorlov guruhlarida bolalar ko'proq akvarel bo'yog'ini ishlatalilar. Bo'yoqlar oldindan ho'llangan bo'lishi lozim. Mo'yqalamlar yaxshilab yuviladi.
4. Mashg'ulot uchun latta va idishchalarni tayyorlash zarur. Suv idishlarga mashg'ulot boshlanish arafasida quyiladi.
5. Applikatsiya uchun rangli qog'oz yig'masi tayyorlanadi (ortiqcha miqdorda).
6. Kraxmaldan tayyorlangan yelim.
7. Loy ishi mashg'ulotlari haftada bir marotaba tayyorlanadi, polietilen plyonkalarda saqlanadi. Tarbiyachi har bir bola uchun loy parchasini qo'yish uchun taxtachalar, katta tayyorlov guruhlari uchun ko'rgazmalar, harakatlanuvchi taxtachalar tayyorlaydi, ho'l yoki nam lattalar berilishi kerak.
8. Plastilin ham rangi bo'yicha tayyorlanib, rangdor mayda qlsmlarni yasash jarayonida beriladi. Ko'proq katta guruhlarda beriladi, oldindan issiqda yumshatib qo'yiladi.
9. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ko'rgazmali materiallar bo'lishi lozim. Masalan: predmetlar, o'yinchoqlar, illustratsiyalar, xalq amaliy dekorativ san'ati namunalari.
10. Har bir guruhda bolalar ishining tahlili uchun ko'rgazmalar bo'lishi kerak. Mashg'ulot uchun zarur bo'lgan materiallarning har biri aniq, bir joyda, faoliyat turlariga qarab saqlanishi lozim, navbatchilar bunga ahamiyat berishlari kerak.

11. O'rta guruhdan boshlab bolalar ham tarbiyachi bilan birgalikda mashg'ulotga tayyorlanib, navbatchilikka jalg qilinadi.

Har bir guruhda, har bir bola yoki navbatchining vazifalari tarblyachi tomonidan rejalashtiriladi.

**Kichik guruhda.** Tarblyachi guruhda bolalarni mashg'ulotdan keyin o'z joyini tartibga solishga, ya'ni qolgan loyni, mo'yqalamni, salfetkani, qalamni tarbiyachlga keltirib berishga o'rgatadi. Yil boshida tarbiyachining o'zi materiallarni tayyorlaydi, so'ng alohida bolalarni materiallar tayyorlashga jalg etadi. Bu navbatchilik emas, balki ba'zi bolalar uchun topshiriqlar berish hisoblanadi (yil davomida tarblyachi hamma bolalarni mehnat topshiriqlarini bajarishga jalg etishi lozim). Mashg'ulotdan so'ng bolalar o'z stollaridagi narsalarni oldin umumiy stolga olib kelishga o'rganadilar, so'ng tarbiyachi o'z yordamchllari bilan mo'yqalamlarni yuvadi, salfetkalarni yig'ib oladi.

**O'rta guruhda.** O'rta guruhda ham yil boshida xuddi kichik guruh kabi topshiriqlar beriladi. Yilning ikkinchi yarmida tarblyachi bolalarni navbatchilikka jalg etadi. Ular idishlarga suv quyadilar, bo'yoqlarni qo'yib chiqadilar va boshqalar. Mashg'ulotdan so'ng bo'yoqlarni joyiga olib borib, mo'yqalamlarni yuvib, joyiga qo'yadilar.

**Katta guruhda.** Katta guruhdagi navbatchliar stol va stullarning qay tarzda turishini nazorat qiiib, yellm, loy, bo'yoq va mo'yqalamlarni stol ustiga qo'yib chiqadilar. Mashg'ulotdan so'ng stollar ustini artib, taxtachalarni yig'ib, idishlarni yuvib, joyiga qo'yadilar. Qaychilarni tarqatib, mashg'ulotdan so'ng yig'ib oladilar.

**Tayyorlov guruhida.** Bu guruhda navbatchilikka katta mustaqillik beriladi. Tarbiyachi bolalarga, navbatchilarga mashg'ulot uchun nimalar kerak bo'llshini aytadi, navbatchilar ularni tayyorlaydi.

#### 1.4. Tarbiyachining mashg'ulotga tayyorgarligi

Mashg'uloni boshlashdan avvai, tarbiyachi albatta o'zi tanlagan natura, o'yinchoq, illustratsiya va o'zi bolalarga nisbatan qayerda turishi kerakligini aniqlab ollshi kerak. Mashg'ulotdan oldin tarbiyachi albatta chizish, loydan yasash va qirqishni mashq qilishi lozim. Bu esa, tarbiyachlga tasvir vositalarini aniqlab olish, qaysidir murakkab qismi ustida ko'proq ishlash va bolalarning diqqatini ham shu yerga ko'proq jalg etish imkonini beradi. Mashg'ulotga tayyorlanish jarayonida tarbiyachi metodik adabiyotlarga murojaat etadi, qaysi metod va usullarni qo'llash mumkinligi ustida ishlaydi. Tarbiyachi mashg'uloni tashkll etishga tayyor bo'lgach, bolalarni o'yin faoliyatidan asta ta'llimli faoliyatga ko'chibr ib o'tadi. Mashg'uloni

tashkil etish davri blr-ikki daqiqani tashkil etadi. Bu qism mashg'ulotga qarab turlicha uyushtirilishi mumkin.

Masalan: bolalar tasvirlashlari kerak bo'ladigan predmet yoki illustratsiyalarni ko'rishi, kichkintoylar esa, o'sha narsa bilan o'ynashi, qo'li bilan tegishi mumkin bo'ladi. Kichik guruhdan boshlab bolalarni stol atrofiga sekin-asta, shovqinsiz o'tirishga o'rgatiladi. Mashg'ulotning turiga va mazmuniga qarab, bolalar turlicha o'tqazilishi mumkin. Masalan: kichik guruhda yarim oysimon shaklda o'tkazish mumkin. Bunda tarbiyachi har blr bolani ko'radi va yordam ko'rsatish maqsadida har birining oldiga borishi mumkln.

Hamma mashg'ulotlar uch qismga bo'linadi:

- mashg'ulotning boshlanishi – topshiriqni tushuntirish;
- mashg'ulotning borishi – topshinqning bolalar tomonidan bajarilishi;
- mashg'ulotning yakuni – bolalar bilan bajarilgan topshiriqni tahlil qilish.

1 va 2-qismlar bolalar yoshl va topshiriqqa qarab 2–5 daqiqagacha davom etishi mumkin, **1-qismda** tarbiyachi bolalarga ular bajaradigan topshiriqni e'lon qiladi. Tarbiyachining tushuntirishi emotsional, ijodiy kayfiyat tug'dirishi lozim. **2-qismda** tarbiyachi bolalarning berilgan topshiriqni bajarishga kirishishlarini tekshiradi. Bola ishi o'rtasida oraliq bo'lmasin, bola blr topshiriqni bajardimi, keyingisiga darhol o'tish lozim.

Mashg'ulot davomida bolalar tinch ishlashga, o'z o'rinalidan so'roqsiz turmaslikka o'rganadilar. Katta guruhdagi bolalar dastavval tarbiyachi ruxsati bilan, keyin o'zlari suv va mo'yqalamni o'z joyiga qo'yadilar. Kichik guruhda bolalar mustaqil bo'limganlari uchun ko'proq tarbiyachining o'zi bolalar oldiga kelib turadi. O'rta guruhdan boshlab bolalar tarbiyachiga qo'llarini ko'tarib murojaat etishga o'rganadilar. Bolalar asta-sekin mustaqil ishlashga o'rgatib boriladi. Mavjud qiyinchiliklarni o'zlari hal etish yo'llarini o'rganib boradilar. Mashg'ulot yakuniga besh daqiqa qolganda bolalar ogohlantiriladi. Bu narsa kichik guruh bolalari uchun ortiqcha hisoblanadi, chunki ular hali qayta aloqani egailamagan bo'ladilar. Kichik guruhdagi bolalar ishni oldinroq tugatgan bo'lsalar, rasmni yana elementlar bilan boyitish taklif etiladi.

**3-qism – mashg'ulot yakunida** bolalar bilan bajarilgan topshiriq tahlil qilinadi. Tarbiyachi ishni tugatishni qat'ian taklif etsa, bolalar ishni tugatishi va tarbiyachi kunning ikkinchi yarmida ularga o'z ishlarini tugatib olishga imkon yaratishi lozim. Bolalar ishini tahlil qilish muhim metodlardan biri hisoblanadi. Bolalar ishlarining tahlili ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bolalar

ishlari devoriy gazeta singari osib qo'yiladi. Ular o'z ishlarini yaxshilab ko'rib chiqadilar. Tarbiyachi bolalarning fikrlarini so'raydi va ularning ishlariga umumiy baho beradi. Mashg'ulotdan so'ng bolalarga o'z ishlarini ko'rib chiqish uchun yana bir bor imkoniyat yaratib beradi. Agar mashg'ulot cho'zilib, vaqt qolmasa, sayrdari keyin yoki kunning ikkinchi yarmida amalga oshirish mumkin. Tarbiyachi ota-onalar uchun burchak tashkil etadi va bolalar ishlarini u yerda keyingi mashg'ulotgacha qoldiradi. Albatta, ular dastavval yaxshillab bezatiladi. Ularni turlicha bezatish mumkin. Agar burchak tashkil etishning iloji bo'lmasa, bolalar ishidan albom qilinadi. Blttadan varaq bir kishiga ajratiladi va varaq ustiga konvert yopishtiriladi. Bolaning ismi yozilib, shu konvertga bolaning har bir bajargan ishi qo'yiladi. Aralash yosh guruhlarda mashg'ulotni tashkll etish o'ziga xos xususlyatga ega. Bu guruhni 2–3 yuqori guruhga bo'lib, har biri uchun o'zining dastur mazmuni aniqlanadi (bolalarning hammasi, birgalikda, bir vaqtda, bir faollyat bllan shug'ullansa ham).

Ta'lism – maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni elementar bilimlar tizimi bilan tanishtirishda, maktabgacha ta'lism muassasalari uchun ishlab chiqilgan dasturlarda nazarda tutilgan ko'nlikma va malakalarni shakllantirishda yetakchi rol o'yaydi. Ta'lism jarayonida bolalarga yangi bilimlarni muntazam berib borish, ular jamg'argan tasavvurlarni aniqlash va tizimlashtirish, uning bllish jarayonlari hamda tafakkur faoliyklarini rivojlanishiga amalga oshiriladi.

Ta'lism – ikki tomonlama jarayon: mashg'ulotlar kuzatilar ekan, tarbiyachlning ta'lism berish faoliyatini, uning bolalarga ta'sir etish imkoniyatlarni hamda bolalarning javob berish reaksiyalarini, o'quv harakatlari sifatini ham baholash muhimdir. Ta'llm jarayoni bolalarning jismonly, ma'naviy, mehnat va estetik rivojlanishlariga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Ta'llm jarayonining muhilm vazifasi uning bolalarga tarbiyaviy, umumta'lism ta'sirini (kuzatuvchanlik, zehnlilik, aqliy, nutqiy va harakat faoliyti, mustaqillik, ijodiy tashabbusning rivojlanishini) aniqlashdir.

Pedagog har bir mashg'ulotda ta'lism va tarbiyaning o'zaro bog'liq vazifalarini amalga oshirishni esda saqlashi muhimdir. Masalan, bolalarga rasm chizish usullarini tushuntirar ekan, u bolalarga predmetni izchil tahlil qilishni, ko'rganlarini tasvirlashni, harakat usullari haqida gapirishni, bo'yoqdan tartibli foydalanishni, o'rtog'iga xalaqit bermaslikni, mashg'ulot yakunida hamma narsani o'zi joy-joyiga olib qo'yishni o'rgatadi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarning tashqi dunyo haqidagi tasavvurlari qandayligini, ular o'z fikrlarini

erkin bayon qlla olishlarini, ularning lug'at boyliklari qandayligini anlqlash mumkin. Bolalardagi ma'naviy tasavvur darajasini – bajarilgan ishlarni baholashi va shu kabilardagi fikrlari hamda nutqidan bilib olish mumkin. Demak, ko'rilgan har blr mashg'ulotlarda dasturning barcha bo'limlari bo'yicha bolalar bilan olib borilgan ishning darajasi xuddi ko'zgudagidek aks etadi. Tarbiyachi o'tkazadigan mashg'ulotlarning muvaffaqiyati uch shartga: dasturni yaxshi bilishga, ta'lim metodikasini egaliaganlikka, o'z guruhidagi bolalarning yosh va individual xususiyatlari hamda imkoniyatlarini bilishga bog'liq bo'ladi. Tarbiyachini nazorat qilish va unga yordam ko'rsatish uchun mактабгача ta'lim muassasasi mudirasi barcha yosh guruhlarining dasturini hamda ta'lim metodikasini bilishi, mактабгача tarbiya yoshidagi bolalarning psixo-fiziologik xususiyatlarini tushunishi, yangi ilmly tadqiqotlar va ilg'or pedagogik tajribadan xabardor bo'lishi kerak.

## II BOB. MAK TABGACHA TA'LIMDA BOLALARНИ TASVIRIY FAOLIYATГА О'RGATISHDA RASM TURLARI

### 2.1. Rasm mashg'ulotlarini tashkil etishda rasm turlarini tanlash imkoniyatlari

– Rasm mashg'ulotlarini tashkil etishda maqsadni anlq belgilash (aniq maqsad asosida mashg'ulotlarning tashkil etilishi, o'z navbatida, vazifalarning to'g'ri belgilanishi, mashg'ulot jarayonining umumly holatini oldindan bashoratiy olish natijalarning taxminiy bo'lsa-da, belgilab olinishi uchun sharoit yaratadi).

– Mashg'ulotlarni puxta reja yoki loyiha asosida tashkil etish (ushbu holat anlq maqsad negizida xususiy maqsadlarni aniqlash, mashg'ulot jarayonining umumiyl davni hamda bosqichlarida amalga oshirilishi talab etiluvchi vazifalarning mavjud vaziyatga muvofiqligini nazorat qilib bonish, mashg'ulot jarayonida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish, har bir bosqichning yagona tlzim mazmuniga muvofiq kelishiga erishish borasida imkoniyat yaratadi).

– Mashg'ulotlar rejasini ishlab chiqishda tarbiyalanuvchilarning xohish-istiklari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga ollsh (nazarda tutliyotgan holat maktabgacha ta'lif muassasalari tarblyalanuvchilarini mashg'ulotlarga jalb etish, ularning mashg'ulotlar jarayonida faoliyat ko'rsatishlariga erishishni kafolatlaydi).

– Mashg'ulotlar jarayonida har blr tarbiyalanuvchiga nisbatan ularning psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini e'tiborga olish asosida individual yondashish (qayd etilgan holat tarbiyalanuvchilarning mashg'ulotlar jarayonida ruhan va jismonan toliqib qolishlarining oldini oladi, har bir tarbiyalanuvchiga uning ichki imkoniyatlariga mos keluvchi topshiriqlarning berilishini ta'minlaydi).

– Mashg'ulot jarayonida ushbu jarayonning asosiy subyektlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar shaxsining hurmat qilinishi, har qanday ko'rinishdagi faoliyklarining rag'batlantirilib borilishiga erishish (mazkur o'rinda rag'batlantirish usullari sifatida ma'naviy rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Zero, maktabgacha tarbiya yoshi bolalarining psixologik xususiyatiga ko'ra, ular o'zlarining eng oddiy xatti-harakatlariga nisbatan atrofdagilar e'tibor berishlarini, qo'llab-quvvatlashlarini istaydilar. Atrofdagilar tomonidan bolalarning juda oddiy darajada bo'lsa-da, dinamik xususiyatga ega xatti-harakatlarining «Juda soz», «Barakalla», «Buni uddalay olasan deb kutgandim, yangllishmagan ekanman», «Berilgan topshiriqni sifatli

<https://youtu.be/ONXUZqIQbIU>



qilib bajarishingga ishonaman», «Juda sifatli bajarilibdi» kabi olqishlar yordamida rag'batiantirilib borishi ularning mashg'ulotlarga bo'lgan yondashuvlarining keskin darajada ijobjiy ahamiyat kasb etishiga olib keladi. Bolada tarbiyachi tomonidan berilayotgan topshiriqning o'z vaqtida, sifatli bajarilishiga nisbatan mas'uliyatlari yondashuvni qaror toptiradi, shuningdek, talab etilayotgan qoidalarga qat'iy amal qilish ko'nikmalari shakllanadi).

Maktabgacha ta'llim muassasasida bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishda rasm asosiy o'rinni egallaydi va uchta turni o'z ichiga oladi:

- 1. Alovida predmetlarni chizish.**
- 2. Sujetli rasm chizish.**
- 3. Dekorativ rasm chizish.**

Tasviriy faoliyatga o'rgatishning asosiy vazifasi – tevarak-atrofdagi borilqni tasavvur qilishda bolalarga yordam berish, ularda kuzatuvchanlikni rivojlantirish, estetik go'zallik hissini tarbiyalash hamda tasvirlab berish usullarini o'rgatishan iborat. Shu bilan blrga tasviriy faoliyatning eng asosiy vazifasi – ma'lum blr yosh uchun mos tasviriy materiallar bilan har xil predmetlarning turli timsolarini yaratish amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar jarayonining oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishiga erishish samarali natijalarini qo'lga kiritish imkonini beradi. Tasviriy faoliyat bilan tanishtirish mazmuni biian bog'liq bo'lgan bllimlar atrof olamda bolalar faoliyatini va ularning o'zini tuta bilishini, intizomini boshqarib turadi va maqsad sari yo'naltiradi. Inson qaysi sohada ishlamasin, u adabiyotshunos, geograf yoki kimyogarmi, u nafosat va go'zalliklarni ko'ra olishi va tushuna olishi kerak. Rasm chizish – predmet va hodisalarini grafika-rassomlik usulida tasvirlash bo'lib, uning asosi kolorit, shakl va kompozitsiyadir. Predmetni kuzatar ekanlar, bolalar rasmda uning xarakterli xususiyatlarini ifodalaydilar; badiiy obraz yaratish ekanlar, mazmunni aks ettirishni o'rganadilar; rasm chizish texnikasining boshlang'ich malakalarini asta-sekin egallab, naqshning ba'zi elementlarini o'zlashtiradilar (dekorativ rasm chizishda):

## **2.2. Maktabgacha ta'llim muassasalarida alovida predmetlarning rasmini chizishga o'rgatishning vazifalari**

Bolalarni rasm chizishga o'rgatish, birinchi navbatda, ularning mustaqil ijodkorligini va faolligini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Buning uchun, tasviriy san'atning mazmuni bo'lib xizmat qiladigan, ijtimoiy voqealari, hodisalarini ko'ra bilish va undagi tabiiy estetik munosabatni tasvirlashni tarbiyalash zarur.

Har qanday buyum bolalar tomonidan yassi ravishda ifodalanadi. Bu o‘z o‘rnida bolalar chizgan rasmlarning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Rasmlarning yana bir xususiyati shundaki, turli xil obyektlarni tasvirlashda qismlarning mutanosibligi katta o‘rin tutadi. Ko‘p hollarda bolalar rasmda ta’kidlamoqchi bo‘lgan qism nomutanosib ravishda katta tasvirlanadi, masalan, tanasiga nisbatan boshi katta odam tasviri. Bunday nomuvofiqlik obyektlar o‘rtasida ham kuzatiladi (ko‘pincha odam tasviri ular tomonidan uydan katta qilib chiziladi). Bolalar chizgan rasmlarini ongsiz ravishda sxemalashtiradilar, ba’zan uni soddalashtiradilar, ko‘plab tafsilotlarni tashlab, eng muhilm narsaga e’tibor qaratadilar. Bolalar osonglna chizilgani uchun yoki yaqinlarini yaxshi ko‘rganlari uchun chizishadi (chiroyli kiyilmdagi ona rasmi) va aksariyat qiyin yoki yoqtirmagan narsalarini aslo chizishmaydi.

Predmetli rasm chizishda nafaqat obyektga nisbatan to‘g’ri tasvirlashga, balki ularni obrazli, ya’ni hissiyotli xarakterlashga rivojlantiriladi. Har qanday rasm mashg‘ulotining maqsadi – bolalar ijodiy kuchlarini va tasvir ko‘nikamalarini rivojlantirishdan iborat. Tarbiyachi predmet shakllarini tahlli qilar va u haqida blllmni aniqlashtirar ekan, bolaning shaxsiy tajribasi, bilimi, taassuroti, xayoloti, tashabbusi va tasavvuriga tayanib, vazifani bajarish uchun unga imkoniyat berishi kerak.

Tasvir chizishni o‘rganish alohida turgan buyumni aks ettirish orqali amalga oshiriladi. Ish tasvirni qog‘ozga to‘g’ri va chiroyli tarzda joylashtirishdan boshlanadi, so‘ng har bir narsaning o‘zaro joylashishi, ular orasidagi masofalar nisbatlari aniqlanadi.

Maktabgacha yoshdagagi predmetli rasm chizishning maqsadlari:

- tasvirda aylanasimon, to‘g’ri to‘rtburchak shaklli predmetlarning tuzilishi hamda asosiy qism va detallarni ifoda qilishga o‘rgatish;
- rangdan badiiy ekspressiv vosita sifatida foydalanishni o‘rgatish;
- kompozitsion ko‘nikmalarni varaqning markaziga joylashtirishni rivojlantirish;
- qalam va bo‘yoqlar bilan bo‘yashda texnik ko‘nikmalarni takomillashtirish;
- bolalarning xalq amaliy va bezak san’atiga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, tasviriy san’atning turli xil turlari (rasm, naturmort, kitob grafikasi) bilan tanishtirishda, vizual faollyatga qiziqishni rag‘batlantirish.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarda predmet belgisini va shaklini belgilovchi asosiy tasviriy malakalar mavjudligi sababli pedagoglarning bolalarga nisbatan talablari ham kuchayishi lozim.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar tarblyachisi oldida predmetlarning asosiy belgilari, tuzilmasi va rangini to‘g’ri

<https://youtu.be/I03vU3nL-Hs>



tasvirlashni o'rgatish vazifasi turadi. Mashg'ulotgacha bo'lgan davr jarayonida predmetlarni o'zaro solishtirish, qismlarni detaili tekshirish, idrok etishga, qiyoslashga, farqlashga o'rgatiladi. Aynan shu vaqtda naturadan foydalanish birinchi o'rinni egallaydi. Bolalarga tanish bo'lgan anlq va murakkab bo'limgan shaklga ega predmetlar natura bo'lib xizmat qilishi mumkin, masalan, qo'ziqorin (2 qism), sarak-sarak qo'g'irchoq (4 qism). Predmetni kuzatish jarayonida tarbiyachi bolalar diqqatini shakli, qismlarning joylashuvi, rangi, turli qismlariga e'tiborni qaratadi. Bu belgilarning tartibi tasvirda qay tarzda berilsa, shu tartibda sanab o'tliadi. Tarbiyachi predmetni tasvirlaganda fazoviy imo-ishora va og'zaki tushuntirish bilan almashtiradi. Rasm chizish malakalarini egallagan bolalarga chizishni nimadan va qaysi tartibda bajarish kerakligi uchun tarbiyachining imo-ishorasi yetarli bo'ladi. Tarbiyachi mashg'ulot jarayonida bolalarga natura haqida eslatma beradi va uni ko'rib chiqib, chizishni taklif etadi. Bu yoshda bolalar hali ham tasvirni ma'lum bir nuqtayi nazardan uzata olmaydi, shuning uchun natura (obyekt) asosiy qismlari aniq ajralib turadigan joyga o'rnatilishi kerak. Agar bolalar to'rt yoki olti kishilik stollarda o'tirishsa, naturani bir necha joyga qo'yish lozim, shunda ular har bir bolaning ko'z oldida bo'ladi. Chizish paytida tarblyachi bolalar e'tiborini faqat asosiy qismlarga qaratishi kerak. Ishning oxirida natura chizilgan rasm bilan taqqoslanadi. Tasvirni aniq aks ettirish uchun tarbiyachining namunasi yoki rasmlardan foydalanish mumkin.

Qalam bilan chizish qoidalari: bunda qalam yengli, qog'ozga ortiq darajada bosmasdan ishlatilishi kerak. Aks holda noto'g'ri chiqqan joylar va yordamchi chiziqlarni o'chirg'ich bilan ketkazish qiyln bo'ladi. Shuning uchun o'rtacha yumshoqlik darajasidagi «TM», «M», «2M» rusumli qalamlardan foydalanish ancha qulay.

Barcha yosh guruqlar rasm chizish faoliyatiga o'rgatishning asosiy umumiyligi vazifalarini quyidagilar:

1. Predmetning shakli va tuzilishini tasvirlashga, ularning qismlarini o'zaro proporsiyalashni ko'rsatib berishga, harakat natijasida ulardagi o'zgarishlarga o'rgatish.
2. Tasvirlashni obrazli yorqin qiladigan ba'zi bir xarakterli qismlarni tasvirlashga o'rgatish.
3. Predmetning rangini, uning mazmuni va obraz xarakterini o'zaro birlashtirib berishga o'rgatish.
4. Bo'yoq, rangli qalam va boshqa materiallar bilan chizishda texnik ko'nikmalarni rivojlantirish

Agar umumiyligi shakl topilmagan bo'lsa, konturni to'g'ri chiziq bilan chizib bo'lmaydi, chunki u har dolm o'zgaruvchan, shunga qarab uni chizish ham o'zgaradi, ya'ni nitijasi, rasmning oxirgi yo'nalishi ham o'zgaruvchandir.



Rassom predmetni tasvirlayotganda avval asosiy shaklning elementlarini qog'ozda belgilab oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga, ayniqsa, 3–4 yoshli bolaga tasvirlashning bunday usuli juda qiyin, chunki u predmetni butunicha tasavvur qila olmaydi. Unga predmetni asta-sekinlik bilan blr tomonga chizish osonroq. Tasvirlashning bu usuli bolaning ishini osonlashtiradi, oldin bitta bo'lagini tanlab, naturadagi keyingi bo'lagini eslab yoki ko'rib, uni bo'lakka bo'lib, rasm chizishni davom ettiradi. Asta-sekinlik bilan bolalarga rasmning umumiyligi belgilarini qog'ozga tushurib chizishni o'rgatish zarur, chunki rasmni bo'laklarga ajratib chizishning o'ziga xos qiyinchiligi bor. Bunda kerakli shaklning asosiy bo'laklari hamda ikkinchi darajali bo'laklarning o'zaro joylashishlari va fazodagi o'rinxarini aniq proporsional holatda chizish, aniqlash qiyln bo'ladi.

Alovida predmetlarning rasmini chizishga o'rgatishda shakllarni tasvirlash jarayonidagi xatoliklar faqatgina bolaning noto'g'ri tushunchalari va ko'nikmalarning etarli emasligi predmetni to'g'ri idrok etishni bilmasligi bllan tushuntiriladi. Bolaning tasvirlay olish qobiliyati hali yaxshi rivojlanmagani uchun uning oldida fikr yuritib tasvirlash kabi qiyinchiliklari ham turadi. Rasmda shakl to'g'ri kontur bilan chegaralab chiqilgan, lekin shu bilan birga ishning 1-bosqlchlari chiziqlarni to'g'ri aniq chizish va konturlarni (aniqlash) tasviriy, rasmda ishlash jarayonining vazifasi bo'lib hisoblanmaydi. Agar umumly shakl topilmagan bo'lsa, konturni to'g'ri chiziq bilan chizib bo'lmaydi, chunki u har doim o'zgaruvchan, shunga qarab uni chizish ham o'zgaradi, ya'ni nitijasi, rasmning oxiri yo'nalishi ham o'zgaruvchadir.

*Kichik guruhda rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalarini.* Uch yoshli bola qalam va mo'yqalamni to'g'ri ushlashi mumkin, lekin uning chizish tajribasi kam, bajara olish va bilish qobiliyati yo'q, qo'l harakatlari yetarlicha rivojlanmagan. Shuning uchun asosiy vazifalar bolalarga umumiyligi tarbiyaviy ta'sir qilish bilan bog'liqdir. Kichik guruhda o'rgatishning vazifalarini quyidagilar:

Rasm chizish jarayoniga qiziqishni uyg'otish.

Rasm chizish materiallari – qalam, bo'yoqlar va ulardan foydalanish usullari bilan tanishtirish.

– To'g'ri va egri chiziqlarni, shakllarni chizishni o'rgatish.

Bu guruhning dasturi keyingi guruhlarning dasturidan bosqichma-bosqich murakkablashib borishi bilan farqlanadi. Rasm chizishning birinchi mashg'uloti qog'oz va qalam bilan tanishtirishdan boshlanadi. Qalamlar bllan turli faoliyat turlarini bajarish mumkin. Qog'oz toza edi, qalamning harakatlanshidan unda izlar paydo bo'ldi. Qalamning ochilgan uchi qog'ozda iz qoldiradi. Ikkinci uchi esa iz qoldirmaydi. Agar sekin bosilsa, qog'ozda uning izlari ko'rinemaydi. Agar qattiq bosilsa, qog'oz yirtilib ketishi mumkin. Bunday tushuntirishni va harakatlarni ko'rsatib berish bolalarda rasm chizishga qiziqishni uyg'otadi. Bulardan tashqari, oddiy texnik ko'nlikmalar, qalam va mo'yqalamni to'g'ri ushslash, ulardan tartibli foydalanish. Bo'yoqni mo'yqalamning uchiga olishni bilish kabilarni o'rgatishni dastur o'z ichlga olgan.

Bu guruhda bolalar (3 yoshli bolalar) psixologlk jihatdan rivojlanadi, turmush tajribalari o'sadi. Tarbiyachi bu yoshdagagi bolalar blian rasm bo'ylcha mashg'ulot olib borganda bolalarning rasmga nisbatan qiziqishlarini orttiradi. Bu guruhda bolalarni rasm ishining sifati emas, balki ish jarayoni qiziqtiradi. Rasm bo'yicha barcha guruh bolalari tarbiyachining og'zaki ko'rsatmalarini tinglashga, tarblyachining ko'rsatib bergen usullarini bajarishga o'rganib boradilar. Bu yoshdagagi bolalar rasm faoliyatida tezda o'yin faoliyatiga o'tish bilan ajralib turadi.

Masalan: doirachalar chizib, uning ichini qalam bilan urib chiqib, uni qush don cho'qiyapti deb ifodalaydi. Bunda yosh bolalarning rang tanlash malakasi



shakllanadi. Bolaning diqqatini ularga yoqqan ranglar tortadi. Bolalar tasvirlash jarayonida so'z bilan ifodalashga o'rganadilar. Rasmda tasvirlay olmagan voqealarni so'z bilan to'ldiradilar. Bolalarda mustaqillik, faollik o'sadi. Tarbiyachi bolalarga mashg'ulotda olgan bilim va ko'nlikmalardan mustaqil foydalanish imkoniyatini tug'diradi. Kichik guruhda bolalar narsalarni tasvirlash usullariga o'rgatib boriladi. Bolalar turli shakldagi predmetlarni tasvirlashga o'rgatiladi, doira, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak va turli yo'nalishdagi chiziqlar to'plamidan iborat narsalarni chizadilar.

Predmetlarning shaklini to'g'ri tasvirlashga o'rgatish uchun bolalarning qo'llanni shakliy harakat qilishga o'rgatish lozim. Bolalarga predmet shakli bilan qo'lning shakl harakatlari o'tasidagi bog'liqlikni o'rgatish kerak. Tarblyachi predmetni tasvirlashga o'rgatishdan oldin, uni mashg'ulot oldidan ko'rib chiqadi, ya'ni kuzatish oilb boradi. Bolalar bajonidil turli rangdagi koptoklar, sharlar va archa munchoqlarini tasvirlaydilar. Bolalar bu guruhda to'g'ri to'rtburchak shaklini tasvirlashga qiynaladilar, shuning uchun bu shakl ylining ikkinchi yarmida beriladi. Bolalar archa, daraxt, tursa yiqilmas qo'g'irchoq, aravachani tasvirlaydilar. Qizil, sariq, ko'k, yashil, qora, oqlarni ranglarni bilishga o'rgatiladi. Shuningdek, rang aralashtirishlarni (pushti, havo rang va zarg'aldoq, jigarrang) tavsiya etish mumkin. Bu guruh bolalaridan ranglarni to'g'ri atash va tasvirlash aniq talab etilmaydi, ammo tarbiyachi asta-seklar predmetlarning rang-tusini haqqoni tasvirlashga o'rgatib borishi kerak. Masalan: ko'm-ko'k o'tlar o'smoqda, o'tlarda sap-sariq jo'jalar o'tlab yurishibdi va hokazo. Bu guruhda bolalar chizgan rasm mazmun jihatidan juda sust bo'ladi, ya'ni ishlar mazmuni asosan so'zda ifodalanadi. Masalan: mashina rasmini chizib, so'z bilan mazmun beradi, ya'ni bu mashina yurib ketdi yoki yuk olib kelyapti. Mashg'ulot davomida bolalar bir turdag'i predmetlarni bir necha marta tasvirlashni o'rganadilar. Bu esa, bolalarning texnik ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Rasm chizish davomida ishni tez tugatgan bolalarga tarblyachi rasm mazmunini kengaytirish maqsadida yangi vazifalar berishi mumkin.

Masalan: o't ustida yurgan jo'jalar yonida don yoki turli chuvalchanglarni chizishni tavsiya etish mumkin. Bu blian bolalar chizgan ishlarini mazmunan boyitib boradilar.

Hayotining to'rtinchı yilida bola predmetni yaxshiroq yoki yomonroq tasvirlay olishni bilmasa ham, lekin rasm chizish ma'nosini biladi. U o'zi chizgan shaklsiz rasmlarni predmetning biror-bir belgisiga asosan o'xshatib chizadi. Pedagog bolalarning rasm bilan predmetning o'xshash belgilarni topishga urinishini rag'batlantirib tunishi va shu



<https://youtu.be/WWQR-gNEEC0>

bilan bir qatorda turli shakilarni to'g'ri tasvirlashga o'rgatib borishi zarur. Bu yoshda tasviriy faoliyatni o'rgatish vazifalari blr rejaga qo'yilgan:



- Sodda predmetlarning asosiy belgilarnini (rang, shakl) berib, turli xil to'g'ri va aylanasimon shakllarni tasvirlashga o'rgatish.
- Rangni bilish sezgisi, asosiy ranglarni ajratish va aytishni bilishni rivojlantirish.
- Kompozitsion ko'nikmalarni, qog'ozning o'tasiga tasvirlarni joylashtirshni rivojlantirish.
- Texnik ko'nikmalarni o'zlashtirish.


Bu guruhda to'g'ri va egri chiziqlarni to'g'ri chizishga o'rgatish blrinchi vazifa bo'lib qoidi. Bunda turli chiziqlarni chapdan o'ngga, tepadan pastga, kesishgan chiziqni chizishga o'rgatiladi.



<https://youtu.be/pnCI8S1kwfI>


Bularni, masalan, tizimcha, yo'lakcha, qalam, yomg'ir shaklida chizish mumkin. Kichik guruh bolalariga blr xil shakldan (qorbobo, ikki yoki uch aylanadan iborat) yoki ikki xil shakldan iborat (quyi bitta aylana va birgina to'g'ri chiziqdan iborat) bo'lgan predmetiarni chizish ancha qlyin, chunki uch yoshli bolaning tahlil sintez qilib fikrlashi yaxshi rivojlanmagani uchun bu guruh dasturida faqat ikki xil shakldan iborat bo'lgan predmetni, masalan, quyosh nurlari, archaning ignachalari tasviri kiritilgan. Shakl qanchalik murakkablashsa, rangdan foydalanishi ham shunchalik murakkablashadi. Bolalar rasmda aniq predmetlarning tasviri uchun shu predmetga mos rangni ishlata olishni o'rganadilar. Masalan, qizil rang bayroq, yashil rang archa va boshqalar.

*O'rta guruhda alohida rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari.* Bu guruhda o'rgatishning vazifalari quyidagilar:




- To'g'ri to'rtburchakli va aylanasimon shakldagi predmetlarni tasvirlash ularning tuzilishini, asosiy qismi va qismlarini benishga o'rgatish.
- Rangdan badiiy ifodalash vositasi sifatida foydalanishga o'rgatish.
- Qog'oz markazida predmetni joylashtirishda kompozitsion uquvini rivojlantirish.
- Rasmni qalam va bo'yoq bilan bo'yashda texnik ko'nikmalarni mustahkamlash.

Bu guruhda bolalarga ritmik joylashgan predmetning qismlarini tasvirlash – yuqorida, pastda, bir tomonda, boshqa tomonda hamda blr qancha proporsional joylashgan qismlarni tasvirlash o'rgatiladi. Bu alohida qismlarni o'zaro solishtirish va tahlil qillsh imkonini beradi. Masalan, qorbobo va archa ikki tomonlama novdalari bilan joylasbgan. Bu guruhda tasviri qiyin bo'lgan obyekt – odam rasmini chizish mashg'uiotlarga kiritiladi. Odamni chizishdan oidin bolalar soddarоq shakllarni, qorbobo, sarak-sarak qo'g'irchoqlarini chizishga o'rgatiladi.




Katta guruhda alohida predmetlarni chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari. Bu guruhda bolalar tasviriy va yorqln obrazlarni yaratish usullaridan foydalanib chizishga o'rgatiladi. Ya'ni, quyidagilar:



- Predmetning shaklini, uning belgilarini, hajmini va qismlarining joylashishini o'rgatishni davom ettirish.
- Rasmda sodda harakatlarni tasvirlashga o'rgatish.
- Rang qobiliyatlarini rivojlantirish va mustahkamlash.

- Qalam (shtrixlash usullari) va bo'yoqlar, mo'yqalam harakatlarining usuliari bilan ishlashda texnik ko'nikmalarni rivojlantirish.
- Rangli bo'rlar, ko'mlriar, akvarel bo'yoq bllan chizish usullarini o'rgatish.



Bu yoshda bolalar rasmida bir xil predmetning oxshash va farqli tomonlarini tasvirlash va topishga o'rganadilar. Masalan, ikkita turli olmalar shakli va rangi bllan farqlanadi yoki lavlagi bllan turp, ular sabzavotlar uchun umumiyl bo'lgan dumaloq shaklda. Bu guruhda bolalar yana asosiy spektr ranglari bilan tanishib, rasmida ularning chiroyli turlanishlarini keltirib chiqarishni o'rganadilar. Bolalar rangli qalamlardan tashqari oddiy qora qalamdan predmetning umumiyl belgilarini chizib olish uchun foydalanadilar.

Tayyorlov guruhida rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari. Bu guruhda tasvirlash qobiliyatiga va ko'nikmalarga o'rgatish yakunlanadi. Quyidagi asosiy vazifalar bor:

- Naturadan va tasavvur qilishdan predmetning xarakterli belgillari tuzilishini, hajmini tasvirlashga o'rgatish.
- Yorqin obrazlarni yaratishda bo'yoqlarning boyllidan foydalanishga o'rgatish.
- Kompozitsion qobiliyatlarni rivojlantirish (predmetning hajmi va shakining xarakterini hisobga olib predmetni qog'ozda joylashtirish).

- Rang qobiliyatlarini rivojlantirish (2 rangdan turli hosila rangni bera olish qobiliyat).
- Texnik ko'nikmalarni rivojlantirish (bo'yoqlarni boshqacharoq bo'yoq ollish uchun aralashtirish, predmet shakli bo'yicha qalamda shtrix o'tkazish).

Olti yoshli bolalarda analitik fikrlash qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'ladi. Ular turga mansub predmetlar bel-



[https://youtu.be/2smcHNAl0\\_4](https://youtu.be/2smcHNAl0_4)

gisini ajrata olganliklari kabi, blr predmetni boshqasidan ajratib turuvchi individual xususiyatlarni ham tasvirlay oladilar. Bu esa ijodiy tasavvurni rivojlantiradi.

### **2.3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida sujetli rasm chizishga o'rgatishning vazifalari**

Sujetli rasm chizishning asosiy maqsadi bolani atrof-muhitdan olgan taassurotlarini ifodalashga o'rgatishdir. Mazmunli rasm – bunda bir necha mazmunning ma'lum rangda tasvirlanishi tushuniladi. Bolalar qaysi mazmun bo'yicha rasm chizadilar? Bolalar kichik hikoya, ertak asosida o'zlarini o'rab turgan tevarak-atrofni va tabiatni chizishga harakat qiladilar. Bolalar tomonidan chizilgan «Mening oilam» va «Sevimli multfilm qahramonim» rasmlari bunga misol bo'la oladi. Bolalar bilan olib boriladigan bunday mashg'ulotlar ularning har tomonlama kamol topishlga yordam beradi. Bunda ularning aqliy qobiliyati asta-sekinlik bilan rivojlanadi, shuning uchun mazmunli rasm chizish o'rta guruhdan boshlab kiritilgan. Bunda ham yonma-yon turgan 2–3 ta predmet tasviriy o'rgatiladi. Mazmunni tasvirlashda predmetlarni blr-biridan ajratish uchun o'lchami, fazodagi o'rishga qarab, ularning katta yoki kichikligini o'rgatish kerak. Maktabgacha yoshdagi bola uchun predmetlar orasidagi fazoviy munosabatlarni farqlay olish juda qiyin. Sujetli rasm chizishni, o'rgatishning umumiy vazifalari quyidagliar:





- Mavzuning mazmunini ifodalashda uning asosini ajratishga o'rgafish.
- Obyektlar orasidagi o'zaro aloqani tasvirlashga o'rgatish.
- Obyektlar orasidagi proporsional joylashuvni tasvirlashga va ularning fazodagi o'rinalarini ko'rsatishga o'rgatish.




<https://youtu.be/1LFfkpn0Lj8>

*O'rta guruhda sujetli rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari.* O'rta guruh bolalariga rasm mashg'ulotlari asosan yll boshidan o'ta boshlanadi, sababi kichik guruh bolalariga qaraganda ular ma'lum mazmun asosida lo'nda qilib rasm ishlay olish qobiliyatiga egadirlar.

Bolalarda rasm chizish malakasini rivojlantirish maqsadida 2–3 predmetni ko'rsatish mashqlari bilan boshlash maqsadga muvofiq. Rasm ishlash mazmuni quyidagilardan iborat:

- Mazmuni jihatdan bir-biriga o'xshash 2–3 predmetli rasm chizdirish.



- Bir necha predmetlarning joylanishini belgilash.
- Bola to'rt yoshdan boshlab predmetlarning yonma-yon joylanishini, odamlarning ko'rinishini faqat old tomondan, hayvonlarning ko'rinishini faqat yon tomondan bir yo'lida chiza olish qobiliyatiga ega. Masalan: «Bolalarning qishki o'yinlari».

O'rta guruhlarda rasm chizish orqali bolalarning og'zaki nutqini o'stirish bilan ularni o'rab turgan tevarak-atrof bilan ham tanishtirish maqsadga muvofiq. Bu yoshdagi bolalar uchun quyidagi rasmlarni tavsiya qilish mumkin:

- «Quvnoq quyoshcha», «Sehrli qish», «Mening sevimli mashinam».

O'rta guruhdagi bolalar rasm chizishni faqat bir yo'nalishda chizishlaridan tashqari, blr varaqni to'ldirib chizish malakalarini ham rivojlantirib boradilar. Ma'lum narsani ko'rib tasavvur qilgan holda rasm chizadilar, ularning aqliy qobiliyati rivojlanadi, o'slb boradi. Har bir mashg'ulot bolalarni aqliy, estetik ruhda tarbiyalashga, jamoat ishlarini bajara olishlariga asos bo'ladi. Bu mashg'ulotlarni o'tkazish asosan bolalarning kuzatuvchanligi asosida olib boriladi, shunda ularning og'zaki nutqi, mustaqill fikrlay ollshi, har xil mavzularda rasm chiza olish ko'nikmalari rivojlanadi. Bolalarda rasm chizish ko'nikmasi asosan og'zaki nutq orqali amalga oshiriladi. Masalan: bola blronta qiz yoki uy rasmini chizib, unga kichik ertak ham to'qishi mumkin. Ma'lum maqsadli rasm bolaga ko'rsatilayotganda aniq maqsadga ega bo'lishi kerak. Bola ko'rsatilayotgan rasmni aniq ko'rlb chiza oladi, lekin uning yon tomonini, ustini chizishni bilmasligi mumkin. Ishlangan rasmlar namunasidan quyidagilarga



alohida e'tibor berishlarini eslatish kerak. Masalan: predmetlarning proporsional, simmetrik joylanganligi, uylar, daraxtlar, samolyotning parvoz qllayotganini chizdirish orqali bolalarda tahlil-sintez usulidan foydalanish muhimdir. Yuqorida qayd qilinganidek, quyidagilarga ahamlyat berish kerak:

- mavzuning mazmuni aniq bo'lishiga;
- obyektlar orasidagi bog'lanishga;
- ma'lum maqsadga yo'naltirilgan mavzu bo'lishiga e'tibor berish kerak.

Bu yoshdagi bolalarga rangli qog'ozlar berilib, maqsad aytildi. Masalan, bola ko'k rangda – o'tlarni, havo rangda – suv, sariq rangda – qum ko'rinishida tasvirlay oladilar. Masalan, «Balqlar suzyapti», «Jo'jalar o't ustida o'ynayaptilar»ni ko'rsatish. Bolalarning aqliy qobiliyatlarini tekshirish maqsadida tarbiyachi blr predmet yoki jismni ko'rsatib, uning varaq ustida joylanishini savollar bergen holda suhbat orqali aniq maqsad asosida rasm chizdirish kerak. Bunda, albatta, tarbiyachidan bilimdonlik, katta mahorat talab qilinadi. Bolalarning blr yarim yilda chizgan rasmlarining o'lchovlari asosan bir xil. Bolalar chizgan rasmlarning past va balandilgini ko'rsatish hamda farqini tushuntirish lozim. To'rt yoshli bolalarda rasm chizish ko'nikmalari o'sib boradi, ular kattalar chizgan rasmlarni tomosha qilgan holda taqlid qilib rasm chizishga urina boshlaydilar. Xoh ota-onasiga, xoh tarbiyachi bola tomonidan chizilgan rasmlarni uning oldida baholashi kerak. Bolalar o'rtoqlari chizgan rasmlarning yaxshi, yomonligini va xatolarini ko'rsatishlari lozim.

Quyidagi vazifalar mavjud:

- Bir-biriga mazmunan bog'liq 2–3 ta predmetni tasvirlashga o'rgatish.





– Kompozitsion qobiliyatlarni o'stirish (1 ta chiziqda bir nechta predmetni joylashtirish yoki yonma-yon, yoki butun varaqda osmon va yerni chizish).

Bolalarga beriladigan mavzular qiyin emas: uy, uyning yonida daraxti o'syapti, o'rindiq turibdi; uy yoki daraxt yonida qizcha sayr qilib yunibdi, o'tloqda jo'jalar sayr qilishyapti; o't, gullar, quyosh nur sochyapti. Bu rasmlarda mazmunli rivojlanishni bolalar ko'rsatishmaydi. Bolalar 2–3 predmetni yonma-yon chizishadi, ular orasida hech qanday harakat bog'lanmagan.


*Katta guruhda sujetli rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari.* Bola besh yoshdan boshlab ma'lum mavzudagi rasmlarni chiza olish qobiliyatiga ega bo'ladi. U tevarak-atrofdagi o'zgarishlarni tasavvur qila oladi va chizishga harakat qlladi. Bu yoshdagi bolalarga quyidagi mavzudagi rasmlar chizish tavsiya qilinadi:



«Paxtazorda»



«Bug'doyzorda»



«Onamning portreti»



«Bizning Yer sayyoramiz»



«Sun'iy yo'Idosh»

Bu chizdirilgan rasmlar aniq va konkret masalada bo'lishiga ahamiyat berish kerak. Masalan, «Paxtazorda», «Sun'iy yo'Idosh», «Onajonim portreti», «Bayramona shahar». Katta guruhda o'tkaziladigan rasm mashg'ulotlarida qiziqarli savollarga javob olgan holda, asarda qatnashayotgan har blr personajga tavsif bergen holda ranglarni tanlay olish va varaqqa joylashtirish vazifalarini belgilash kerak.

Bolalar tomonidan ishlanayotgan har blr rasmda predmetlarning hajmi, o'lchovlanni chamlash bilan birga uzoq-yaqin, oldinma-ketin, ustma-ust, ketma-ket joylash mumkinligini tushuntirish lozim. Bu yoshdagi bolalar, ayniqsa, ertak multfilmlarni tomosha qilishni yaxshi ko'rganliklari sababli shu mavzudagi rasmlar chizishni yaxshi ko'radir. Bola rasm chizishni varaqning eng chetidan boshlab chizish bllan birga predmetlarning joylanishi ko'rsatishi kerak va bo'yoqlarni tanlay olishi ham muhim ahamiyatga ega. Bolani rasm mashg'ulotiga tayyorlash uchun unga kerakli rasm anjomlarini hozirlagan holda, blronta kuy eshittirib, akvarel bo'yoq berish va ma'lum mavzu hamda maqsad asosida rasm chizish ishini boshlash lozim.

5–6 yoshli bolalar rasmlarining mazmuni ancha boy bo'ladi. Bunda bolalar faqat predmetlarni chizishmaydi, balki predmetlar atrofidagi sharoitni ham tasvirlaydilar.

Quyidagi vazifalar mavjud:

- Obyektlar orasidagi o'zaro mazmunan bog'liqlikni tasvirlashga o'rgatish.
- Kompozitsion qobiliyatlarni rivojlantirish (bunda qog'ozda gorizontal chiziqni belgilab chizish).
- Rang qobiliyatlarini rivojlantirish.

Bu yoshdagи bolalarda har blr mavzuning mazmuni oldindan konkret aniqlangan bo'lishi kerak. Ularga, masalan, «Bayram» mavzusini berish kerakmas, chunki bola yo mavzuga aloqador bo'limgan narsani chizishi, yo o'zining imkoniyatiga to'g'ri kelmaydigan, kuchi yetmaydigan masalani qo'yishi mumkin.

*Tayyorlov guruhida sujetli rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari.* Katta guruhda bolalar orqali egailangan ko'nikma va malakalar tarbiyachiga 6–7 yoshli bolaga o'rgatish vazifalarini murakkablashtirish imkoniyatini beradi. Buning uchun quyidagilar kerak:


- berilgan mavzu bo'yicha rasmlarning sujetini boyitish va bolalarga sujetni mustaqil holda aniqlashga o'rgatish;
- harakat natijasida predmetning shaklini o'zgartirishga o'rgatish (masalan, engashishni, yugurishni);
- kompozision qibiliyatlarni rivojlantirish; predmetlarning joylashishi, yaqindagilarini qog'ozning pastiga, uzoqdagilarini tepasiga (hajmlarini o'zgartirmaslik). Rang qobiliyatlarini rivojlantirish mustaqil holda sujetga mos rangni berishga o'rgatish. Bu yoshda bolalarning analistik fikrlashi yaxshi rivojlangani uchun tarbiyachiga berilgan mavzuga mos mazmunni mustaqil holda tanlashga bolalarga imkoniyat yaratib beradi. Masalan, «Uy qurish» mavzusi bo'lsa, bolalarning o'zları «qanaqa uy?», «kim quryapti?», «qayerda?» kabi savollarga javob beradilar. Bolalar harakatdagi predmetning shakli o'zgarishini bilishadi va shu o'zgarishlarni tasvirlay oladilar.

#### **2.4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida dekorativ rasm chizishga o'rgatishning vazifalari**

Dekorativ rasm chizish tasviri faoliyatning boshqa turlari kabi bolada estetik tuyg'uni rivojlantiradi. Bolalarni xalq amally san'ati namunalari bllan tanishtirishda tarbiyachi ularda vatanparvarlik ruhini shu san'at asarlarini yaratayotgan odamlarning mehnatiga hurmat kabi tuyg'ularni tarbiyalashi kerak.

Dekorativ rasm chizish quyidagi umumiy vazifalarni o'z ichiga oladi.

- naqshning turlicha shakllarini bog'llq holda kompozitsion hisni bolalarda shakllantirish;
- rang qibiliyatlarini rivojlantirish;






- xalq amaliy san'ati usullarini farqlash va ularning alohida elementlarini bolalarning o'z ijodida foydalanishga o'rgatish;
- qalam va mo'yqalam bilan chizishning texnik ko'nlikmalarini mustahkamlash.



<https://youtu.be/8ttmNe4uz9k>

Bolalarni dekorativ rasm chizishga o'rgata turib, pedagog bolalarda butun naqsh komponentlari, ranglari, kompozitsiyalari, shakl elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'ra olish malakasini rivojlantirishi zarur. Bola predmetning shakliga va nima maqsadda ishlatilishiga qarab, o'zi bezaydigan ornamenti, naqshi o'zgarishini his qilishi va albatta, tushunishi zarur. Shundan kelib chlqqan holda, u naqsh bilan bezashning ahamlyyatini, maqsadga muvofiqligini, shakl bilan mazmun o'rtasidagi bog'liqlikni bilib, tushunib boradi. Bolalarga dekorativ rasm chizishni tanishtira turib, ritm nima va simmetriya nimaligi haqida tasavvur hosil qilishga o'rgatish zarur. Chunki dekorativ san'at olami ritm va simmetriyasiz mavjud bo'la olmaydi. Dekorativ rasm chizishda asosiy vazifalardan bini – rangni his qilishni rivojlantirishdir.





Boshlang'ich tasvirlash ko'nikmalariga bolalar birinchi va ikkinchi kichik guruhda ega bo'ladilar. Ikkinchı kichik guruhda ayrim vazifalar dekorativ xarakterga ega. Masalan: «Ro'molchaning chetini chiziqlar bilan beza». Lekin bunday mashg'ulotning asosiy maqsadi – naqsh hosil qilish emas, to'g'ri chiziqlarni turli yo'nalishda o'tkazish malakasini mustahkamlashdir.

**O'rta guruhda dekorativ rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari.** Dekorativ rasm chizish bolalarga to'rt yoshdan boshlab o'rgatiladi.

O'rta guruhda dekorativ rasm chizishga o'rgatishning vazifalar quyidagilar:

- chlziqda, kvadratda, doirada shakllarni ritmik joylashtirishning kompozision malakasini rivojiantirish;
- ranglar hissini rivojlantirish, ya'ni kontrast, yorqlin ranglarni chiroyli moslashtirish;
- turli yirik va mayda shakllarni – naqshning sodda elementlarini chiza olish malakasini rivojlanirish;
- mo'yqalamdan foydalanishning texnik ko'nikmalarini rivojlanirish, qog'ozga engil tekkazib, nuqtalar hosil qilish;





<https://youtu.be/cLrtTB-QbCA>

– mo'yqalamning boshchasidan to'g'ri chiziqlar o'tkazishda hamda dog'chalar hosil qilish usulida mo'yqalamdan to'liq foydalanish; rang – naqsh ornamentida kompozitsiya bllan chambarchas bog'langan, naqsh bezagida ularni blr-biridan ajratib bo'lmaydi. Maktabgacha yoshdagি bolalar ranglarning blr-biriga mos kelib, uyg'unlashishini, albatta, barchasini o'zlashtira olmaydilar. Lekin, rang hissi ularda bog'chagacha bo'lgan yoshdan boshlab rivojlana boshlaydi. Dekorativ rasmda ranglardan foydalanish vazifasi har bir guruhda murakkablashib boradi: yorqln, kontrast ranglarning moslashuvidan boshlab, iliq va sovuq ranglar jilosi (ottenok)ning turll uyg'unlashuviga qadar. Bu vazifani amalga oshirishni bolalar eng sodda tasviriy shakllarni chizishni o'rganib bo'lganlaridan keyingina, bolalar diqqatini yangi vazifaga konsentratsiyalash, ya'nı qaratish lozim: bu-shu oddiy-sodda shakllarni naqsh hosil qilish uchun ma'lum blr ketma-ketlikda joylashtirishdir.

O'rta guruhda dekorativ rasm chizishning kompozitsion vazifasi tayyor shakllarni yelimlashga o'xshashdir.

Boshlang'ich mashg'ulotlarda, bolalar mo'yqalam bilan tekis chiziqlar chizib, ularning orasida mo'yqalam yordamida dog'chalar hosil qilishni, nuqtalar hosil qilishni o'rganadilar. Bunda dog'chalarning ranglarini va naqsh murakkablashgan sari, o'rnini o'zgartiradilar.

Mo'yqalam yordamida dog'chalar hosil qilish usuli (mazok) bajarish uchun yengil bo'lgan dekorativ elementdir. Bu anlq bir harakatni talab qilmaydi va mo'yqalamni qog'ozga botirib olishdan hosil bo'ladi.





Shuning uchun naqsh chizishda avval botirib ollsh usuli, so'ng nuqta hosil qilish usuil kiritiladi. Nuqta hosil qillsh mo'yqalam bilan ishlashda yangi usulni talab qiladi: mo'yqalamni vertikal holatda ushslash lozim, shu bilan blrga bolada koordinatsion harakat yetarlicha rivojlangan bo'lishi kerak, chunki mo'yqalam qog'ozga faqat uchi bilangina tekkiziladi. Boshlang'ich rasmlarning kompozitsiyasi ham soddadir: birlina elementni ritmik qaytarib, naqsh chizish. Faqatgina insonlar uchun xos bo'lgan qo'lning ritmik harakati ana shu mashqlarni qaytarishni yengillashtiradi va tasviriy shakldagi ritmnini yetkazlb berishga yordam beradi.

Almashinuv – kompozitsyaning murakkablashgan usulidir. Chunki u blr nechta shakllarning o'zaro moslashuviga asoslanadi. O'rta guruhdagi bolalar uchun ikkitagina elementni shakli va rangi bilan navbatma-navbat almashtirish etarli bo'ladi. Dasturdagi materialning mukammallashib borishi murakkabroq kompozitsiya bilan naqshda yangi tasviriy elementlarni kiritish hisobidan hosil bo'ladi.

Nuqtalar chizish va mo'yqalamni botirib olish usulidan tashqari, bolalar naqshda doirachalar, halqalardan foydalanib chizishni o'rganadilar. Bu elementlarni bolalar kichik guruhlarda o'rganganlar. Dekorativ rasmda bu shakllarni chizish ancha o'zgaradi: ular ancha kichik hajmda, chizayotganda shakllar bir-blriga hajmi jihatdan mos bo'ilshi kerak; undan tashqari, bu shakllar predmet obrazi bllan bog'liq emas, bu albatta bola uchun tasviriy jarayonni murakkablashtiradi. Bolalar yana naqshni faqat bir chiziqda emas, balki to'rtburchak shaklida, doirada ham joylashtirishni o'rganadilar. Bu shakllar naqshda boshqa kompozitsiyani talab qiladi. Kvadratda, to'g'ri chiziqda joylashtirilgan naqshni chizish yaramaydi, chunki kvadratning to'rtta tomoni, burchagi, markazi mavjud; doirada esa markaz blian chekka aylana chegarasi bor.



Quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- aylana, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak ichiga naqsh chizishda shakllarni ritmik joylashtirishda qo'llanadigan kompozitsion qobiliyatni rivojlantirish;
- rang qobiliyatini rivojlantirish, kontrast ranglarni mos holda ishlatishni o'rgatish;
- naqshning oddiy elementlarini chizishga o'rgatish;
- mo'yqalamdan foydalanishning texnlik ko'nikmalarini rivojlantirish (qog'ozda yengil yurg'izish, nuqtalar qo'yish, chiziqiar chizayotganda mo'yqalamning butun usti bilan chizish);
- avval bolalar mo'yqalam bilan to'g'ri chiziqlarni chizishni va ularning orasiga nuqtalar qo'yishi, ranglarni ketma-ket almashtirib chizishni o'rganadilar. Undan tashqari, bolalar, dumaloq va aylana shakllarni chizishga o'rganadilar;

*Katta guruhdada dekorativ rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari.* Besh yoshdagи bolalar uchun dekorativ rasmda ancha murakkabroq topshiriqlarni berish mumkin. Chunki bu yoshda bolalarning estetik hissiyotlarining rivojlanish darajasi aricha yuqoridir. Bolalarga quyldagilarni o'rgatish zarur:

- qog'oz shakliga yoki hajmlи predmetga nisbatan naqshni simmetrik joylashtirish;
- naqshda turli xil to'g'ri, doirasimon chiziqlardan, shakllardan hamda o'simlik elementlaridan foydalanish;
- asos (fon)ga nisbatan ranglarning chiroyli moslashuvini topish;
- mo'yqalamdan mahorat bilan foydalanish (uchi bilan chizish, boshchasi bilan to'liq chizish, mo'yqalamni turli yo'nalishda harakatlantira olish). Boshlang'ich mash-





g'ulotlarda o'rta guruhda hosil qilingan malakalar mustahkamlanadi. Ular quyidagilardan iborat: turli shakllarda mo'yqalam yordamida to'g'ri chiziq chizish, botirib olish usuli blian chizish, nuqtalar chizish. Bu – o'rta guruh materialini oddiygina qaytarish emas. Bolalarning ixtiyoriga bir necha xil ranglar hamda naqshda bir-blriga moslashadigan elementlarning turli hajmlari havola qilinadi. Yilning boshida bolalarga doira ichida naqsh chizishning yangicha usuli o'rgatiladi, ya'ni markaz hamda konsentrik aylana bo'ylab simmetrik elementlar chiziladi. Doira va kvadratdan tashqari naqshni tuzish uchun bolalarga – oval, uchburchak, rozeta (to'pbarggul shaklidagi bezak), oltiburchak kabi shakllar beriladi.



Katta guruhda kompozitsion usul sifatida elementlarni navbat bilan almashib chizish tamoyilidan foydalaniladi; bunday usul naqshni yanada dekorativlashtiradi. Navbat bilan almashib chizishda naqsh o'z ichlga turli xil shakldagi va rangdagi 2–3 xil elementni olishi mumkin. Naqshning bezak elementi sifatida bolalar turli chiziq shakllaridan (enli va ensiz chiziqlar, botirib olib chizish, nuqtalar, doirachalar, aylanalar chizish) va murakkabroq bo'lgan – o'simlik shakllari (barglar, mevalar, gullar)dan foydalanishni o'rganadilar. Bunday o'simlik shaklidagi elementlarni bir necha marta qaytarib chizish bolalar uchun ancha murakkablik qiladi. Bolalarga yana mo'yqalamdan foydalanishning yangicha usuli ko'rsatib beriladi, ya'ni qog'ozga mo'yqalamni yon tomoni bilan botirib olish usulidir. Bunday botirib olish natijasida hosil bo'ladigan bosmalar barg shaklida bo'ladi va ulardan gullarning, barglarning naqshini chizishda foydalanish mumkin (mo'yqalamning raqamini inobatga olgan holda: №3, №5, №6.)

Katta guruhda bolalar rangli fonga moslashtirgan holda turli ranglar jilosidan foydalanishni o'rganadilar. Dekorativ rasmda mazmunli rasmga nisbatan foning rangi juda ham turli xil bo'llishi mumkin. Yorqin ranglarning moslashuvidan tashqari, bolalar ranglarning chiroyini ma'lum bir ranglar majmuyi (gamma)da (ko'k, havo rang, oq, qizii, olov rang, sariq va hokazolar) ko'rishni o'rganadilar. Bolalar bir xil rangdagi, sidirg'a naqshlarni his qilish layoqatiga egalar. Masalan: qor parcha turlarining jimjimador naqshi. Katta guruhda bolalarni hajmi buyumlarda naqshlarni hosli qilishga o'rgatiladi. Bunday rasm chizishning murakkabligi shundaki, naqsh kompozitsiyasini kuzatish qiyin, negaki chizuvchi uni qisman ko'ra oladi va naqsh elementlarining shakli buyumning yuzasi qavariqligidan biroz



o'zgaradi. Masalan: ko'zani yoki blror o'yinchoqni bezatish. Shuning uchun bolalarga naqsh bilan bezash uchun beriladigan hajmli buyumlar sodda shaklga ega bo'lishi kerak.

Masalan: loydan yasalgan – qushlar, otlar. O'yinchoqlarning naqshi sodda va ritmikdir – turli kenglikdagi to'g'ri va to'lqinsimon chiziqlar bilan nuqtalarning, doirachalarning, halqachalarning moslashuvidan iborat. Bu ornamentlar rangi jihatdan oq fonning bir necha asosiy yorqin ranglar bilan oddiy kontrast (keskin) moslashuvini beradi.

Bolalarni quyidagi vazifalarga o'rgatish kerak:


- varaqning shakliga mos qllib naqshni simmetrik chizish;
- naqshda turli to'g'ri, egrı chiziq va shakllardan o'simlik elementlaridan foydalanish;
- fondan kellb chlqib, ranglarning turli jilolaridan foydalanish;
- mo'yqalam bilan ishlash (uchi bilan, butun uchi bilan, turli yo'nalishlarda erkin harakatlantirish).

Bolalar to'g'ri to'rtburchakka, aylanaga, kvadratga naqshni chizishni o'rganib boradilar. Bulardan tashqari, oval, uchburchak va oltiburchak ichlga naqsh chizishni o'rganadilar.

*Tayyorlov guruhida dekorativ rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari.* Olti yoshdagи bolalarni dekorativ rasm chizishga o'rgatish vazifalari quyidagicha:

- kompozitsiyalash hissini rivojlantirish: yassi va hajmli shakllarda predmetning ahamiyatliligiga va belgilangan maqsadiga nisbatan naqshlarni tuzish;
- ranglar hissini rivojlantirish: turli xildagi ranglardan, ularning nozik rang jilosи (ottenok)dan turli moslashuvlarda foydalanish. (Qizil – pushti rang; ko'k – moviy rang; yashil – och yashil rang; qora – kul rang);
- xalq dekorativ naqshlarining turli ko'rinishlarining ahamiyatini ko'ra olishni o'rgatish; rasmlarda xalq naqshining alohida elementlaridan foydalanish;
- qalam va bo'yoqlar bilan chizish texnik ko'nikmalarini takomillashtirish.

Maktabgacha tayyorlov guruhiga yuma-loq to'g'ri burchakli shakllarda naqsh chizishning asosiy prinsiplari bilan tanish bo'lgan bolalar keladi. Ularga yangi shakllar – to'g'ri to'rtburchak va ko'pburchak hamda turli xildagi yassi shaklli predmetlar – vazalar,





ko'za (kuvshin)lar, piyola (chashka)lar, qo'lqoplar, shapkalar va hokazolar tavsiya qilinadi. Bu predmetlar to'g'ri geometrik shaklga ega emas va ularda naqsh chizish turli prinsiplardan foydalanishni talab qiladi. (Masalan: ko'zacha bo'ynining chetiga – chiziqli ornament (naqsh) chizilsa, yumaloq qismida esa – markazda chizlladigan naqshdan foydalanlladi). Undan tashqari, simmetriya haqidagi tushuncha ham murakkablashadi. Blr xil shaklni chap va o'ng tomonga joylashtirish bllan tanishadilar. Undan so'ng bolalar to'rsimon bezak prinsipi asosida bir turdag'i naqsh bilan – elementlarni shaxmat ketma-ketligida qaytarib, galma-gal chizish bllan butun shaklni to'ldirish usullni egallaydilar. Bolalar matolar uchun, qo'g'irchoqning ko'ylagi uchun turli naqshlarni chizadilar. Uchburchakdag'i naqsh faqat chetlarida, burchaklarida bo'lmay, balki bir burchakdan boshlanib, butun uchburchak bo'ylab tarqallshi mumkin. Bunday hollarda teng tomonli uchburchak shakli emas, balki yon tomonlari teng bo'lib, to'g'ri yoki o'tmas burchakli uchburchak shakli olinadi. Bolalar ularda uchburchak shaklga ega bo'lgan ro'molcha naqshini chizadilar. Naqshni chizish uchun bolalar turli tabiiy shakllardan (o'simliklar, hayvonlar) foydalana boshlaydilar. Maktabgacha tayyorlov guruhi bolalari xalq dekorativ naqsh bezaklarining elementlaridan o'z naqshlarida foydalanishlari mumkin. Bunda asosiy usul saqlanlb qollshi kerak. Tarbiyachi bolalarni xalq san'atining namunalariga qarab, naqsh jimgimalarini, mayda va yirik shakllarni o'zaro

moslashtirishni, ularni o'tsimon bezak bilan bezashni, berilgan naqshga xos ravishda ranglardan ma'lum moslashuvda foydalanishni o'rgatadi. Loydan yasalgan o'yinchoqlarni bezashdan tashqari, bolalar yana pape-mashedan yasalgan katta-kichik llkopchalarni, piyolalarni naqshlar bilan bezashlari mumkin.

Tayyorlov guruhida bolalar nafaqat bo'yoqdan, balki rangli qalamlardan ham foydalanishni o'rganadilar. Kichikroq guruhlarda rangli qalamlardan faqat mazmunli rasm mashg'ulotlarida foydalanilar edi, chunki bolalar qalam bilan kerakli ranglarni me'yoriga yetkaza olmasdilar; bu esa dekorativ rasmda juda katta ahamiyatga ega. Ozoda, bir tekisda yorqin shtrixlash kabi texnik qiyinchiliklar ko'pgina diqqat va kuchni talab qiladl. Tayyorlov guruhldagi bolalarda ma'lum ko'nikmalar mavjud bo'lib, ular qalamdan turli rang jilolarini hosil qila oladilar. Masalan: gulning har bir gulbargi markazdan qalam bilan turli xil bosimda shtrixlanadi. Bolalar nafaqat yorqin ranglarning moslashuv go'zalligini, balki nozik, sokln va bir vaqtning o'zida ko'zlar uchun yoqimli bo'lgan ranglarning go'zalligini ko'rishga o'rganadilar. Tayyorlov guruhida bu vazifa qalam hamda bo'yoqlar bllan chizishda hal qilinadi. Dekorativ rasmda barcha guruhlarda faqatgina guashdan foydalaniladi, chunki guashda blr rang ustiga boshqa rang bilan chizish imkonibor; dekorativ rasmda ko'pincha bunday ustma-ust chizish talab qilinadi va akvarel bo'yoq bunday imkonga ega emas.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida trafaret, shablon asosida chiziladigan buyumlarni, shakllarni chizishga, qirqish, yelimalashga, yasashga o'rgatiladi.

## **2.5. Maktabgacha ta'lif muassasalarida tasviriy san'atlari tashkil etishda noan'anaviy usullardan foydalanish**

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularga tevarak-atrofdagi barcha narsalarni kuzatishni o'rgatamiz. Ijodly qobiliyatlarini o'stirib, rivojlantirish uchun albatta tasviriy faoliyatga murojaat qllamiz. Bola predmedli rasm chizar ekan, shu predmetga bo'lgan qiziqishi ortib boradi. Predmet orqali bola obraz yaratadi va shu narsaga bo'lgan qiziqishi ortadi. O'zining ijodly qobiliyatini ishga soladi.

## KLYAKSOGRAFIYA

**1-variant.** Dog' orqali rasm chizish qog'ozga tushirilgan dog'ga obraz, shakl berish, uni biron-bir narsaga o'xshatishdan iboratdir.

Qog'ozga dog' tomiziladi. Bolaga savollar beriladil: – Qani ayt-chi, bu dog' senga nimani eslatayapti? NImaga o'xshayapti? – Shu kabi savollar bolaning fikrlash qobiliyatini kengaytiradi. Uni o'ylashga chorlaydi. Bolaga dog'ni aylantirib ko'rish taklif etiladi, turli tomondan ko'rib, unga qo'shimchalar chizish mumkinligi tushuntiriladi. Shundan so'ng, hosil bo'lgan obrazga qo'shimcha qismlar chizib, uni boyitlladi.



**2-variant. «Bo'yoqni puflash orqali rasm chizish».** Besh yoshli bolalar uchun mashq.




Bo'yoqni naycha orqali puflab, klyaksogafiyani hosil qilish.

**Kerakli ashyolar:** qog'oz, tush yoki blr idishda ivitilgan guash, plastik qoshiqcha va sharbat ichimligi uchun ishlataladigan naycha.

Tasvirni hosil qilish holati. Bola idishdagi bo'yoqni plastik qoshloq orqali qog'ozga tushiradi. Qog'ozga tushgan bo'yoq katta dog'ni hosil qiladi.

So'ng bola naycha orqali dog'ni har tomonga shunday puflaydiki, naycha na bo'yoqqa, na dog'ga tegmasin. Keraklicha puflab, shakl hosil bo'lgach, uni nimagadir o'xshatadi va undagi obrazni boyitish uchun ko'z, quloq va hokazolarni chizib, rasmni nihoyasiga yetkazadi.

**3-variant. Ip orqali klyaksografiyanı chizish.** Besh yoshli bolalar uchun mashq.



**Kerakli ashyolar:** qog'oz, tush, akvarel bo'yog'ining suyuqlantirilgani, suyul-tinilgan guash, plastik qoshiqcha va 10-raqamll ip.

Tasvirni hosil qilish holati. Uzunligi 25–30 sm keladigan ikki qavatli ipni turli bo'yoqlarga botirib chiqiladi. Qog'ozni qoq o'rtaidan ikkiga buklangan. Ikkiga buklangan qog'ozning o'rtafiga bo'yoqqa botirib olingan ipni qo'yib, ustidan qo'l bilan boslladi, sekln-asta ipning uchidan ushlab ip sug'urib olinadi. Qog'ozni ochib, hosil bo'lgan tasvirga obraz beriladi. Kerakli joylarini

to'ldirib, rasm nihoyasiga yetkaziladi. Iplarning yo'g'onligi, fakturasi turlicha bo'lishi mumkin.

### Barmoq bilan rasm chizish usullari

Rasm chizishning turli-tuman yo'llari bor bo'lib, nafaqat flamaster, akvarel bo'yoq va qalamda, balki qo'l, barmoqlar, kaft, iyak, tirsak, oyoq va tovonlar bilan ham rasm chizish mumkin ekan.

Masalan: daraxt chizish uchun bola qo'li va barmoqlariga turli rangdagi bo'yoqlarni bo'yab chiqadi va kaftini qog'ozga bosadi, qarabsizki, qog'ozda kuz daraxti hosil bo'ldi.

Rasmni bitta bosh barmoqda emas, balki barcha barmoqlar ishtirokida chizsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Nam qog'ozda rasm chizish

Yaqin yillar ichida faqatgina quruq qog'ozgagina rasm chizish mumkin edi. Chunki akvarel, guash bo'yoqlarini suv orqall eritar edik. Keyingi yillarda rasm chizishning bir qator turlari paydo bo'ldi, masalan, nam qog'ozga rasm chizish turi. Nam qog'ozga chizilgan rasmlar: «Tuman ichidagi shahar», «Men tush ko'ryapman», «Yomg'ir yog'yapti», «Pardadagi gullar», «Tundagi Toshkent» va hokazolar. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga qog'ozni namlashni o'rgatish lozim. Agar qog'oz juda nam bo'lsa ham rasm chiqmasligi aniq. Shu sababli paxtani suvgaga botirib, qog'ozning ustidan namlangan paxta surtid namlanadi. Qog'oz tayyor bo'lgach, ularga turli rasmlarni chizish mumkin.



## Sachratish usulidan foydalamb rasm chizish (tish cho'tkasi orqali sachratish)

**1-variant. Kerakli ashyolar:** A4 o'lchamli qog'oz, guash, tish cho'tkasi, qattiq karton bo'lagi, plastik.

*Tasvirni hosil qilish yo'llari:* bo'yoq qog'ozning ustiga sachratiladi. (PVA yelimi bilan aralashgan), bo'yoq tish cho'tkasiga botirib olinadi va karton yoki plastik orqali qog'oz ustiga sachratiladi. 1-qoida – o'zidan itargan holatda qog'oz ustida. Bu ishni bajarayotganingizda albatta fartuk taqib olishingizni maslahat beramiz. Qog'oz tagiga kleyonka yoki gazeta solsangiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Tish cho'tkasini qog'ozga urib chiqsangiz, yana alaqanday shakllar paydo bo'ladi.



### «Predmetli monotipiya»

**2-variant. Kerakli ashyolar:** dog'ning simmetriyasi va ranglar. Turli rangdagi qattiq qog'oz, guash yoki akvarel.



*Tasvirni hosil qilish yo'llari:* Bola qog'ozni teng ikkiga buklaydi. Buklangan qog'ozni ochadi va xohlagan bitta tomoniga predmetning yarmini chizadi, ranglar bilan bo'yab chiqadi. Hali qurimasdan yana qog'ozning yarmini ikkinchi tomoni bilan yopadi va kafti bilan bosib chiqadi. Bir tomondag'i tasvir ikkinchi tomonga o'tadi va nusxa paydo bo'ladi. Keyin esa bola kerakli joylarini yana bo'yoqlar bilan bo'yaydi va rasmni nihoyasiga yetkazib chizib chiqadi.



<https://youtu.be/eWXXIgFHs4M>



Bu yo'l bilan bola daraxt, kapalak, gul, uy, ninachi va h.k.larni chizishi mumkin bo'ladi.

**Qo'l kafti bilan chizliadigan rasmlar.** Bu rasm turini 2 yoshli bolalar bilan chizish ham mumkin.



<https://youtu.be/XZOMzVP4P70>

**Kerakli ashyolar:** bu yo'l bilan chizish uchun bo'yoqlar likopchaga solinadi, qalinroq qog'oz kerak bo'ladi.

Tasvir hosil bo'lishi uchun bolaning qo'li likopchadagi bo'yoqqa botirib olinadi va qog'ozga bostiriladi. U yoq-bu yoqqa surtilib, hosil bo'lgan tasvir to'ldiriladi va unga obraz beriladi. Qo'llar salfetka bllan tozalanib, rasmni mo'yqalam, flamaster ishlatib nihoyasiga yetkazib qo'yiladi. Chizish davomida ikkala qo'ldan foydalanilsa bo'laveradi.

### Barglarni bostirish yo'li bilan chiziladigan rasmlar



**Kerakli ashyolar:** likopchalarda turli rang-dagi suyultirilgan bo'yoqlar, qurigan barglar.

**Bajariladigan ish.** Avval daraxt barglari mo'yqalam orqali bo'yaladi, bo'yagan tomoni bilan qog'ozga bostiriladi. Bostirilganda barglar surilib ketmasligi kerak. Ularni turli-tuman ranglar bilan bo'yash mumkin, qolgan joylarini mo'yqalam bilan davom ettirsa bo'ladi. Juda noan'anaviy peyzaj – manzara hosil bo'ladi.

## 2.6. Rasm mashg'ulotlari uchun materiallar va uskunalar

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari pedagogik o'ylangan moddiy jihozlanishni: maxsus uskunalar, asboblar va tasviriy materiallarni talab qlladi. Mashg'ulot o'tkazish uchun sharoit yaratuvchi barcha predmetlar taxtalar, molbertlar, tagliklar va hokazolar; asboblar: tasviriy jarayonda kerak bo'ladicidan qalamlar, mo'yqalamlar, qaychilar va boshqa narsalar, tasvir yaratishda ishlataladigan tasviriy materiallar – jihozlash uskunalariga kiradi. Mudira tarbiyachi-metodist bilan birgalikda tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli o'tkazish va bolalar ijodiyotini o'stirish uchun olingen barcha kerakli narsalarini ko'rib chiqadi, material hamda uskunalardan qanday foydalanilayotganligi, bolalarda ularga nisbatan ehtiyyotkorona munosabat tarbiyalanayotganligini tekshirib chiqadi. Tasviriy faoliyatning har xil turlari turlicha jihozlanadi.

**Rasm** – predmetli, mazmunli dekorativ, o'ylangan fikr bo'yicha chizish mashg'ulotlari uchun lenolium qoplangan doskalar (devorga va polga qo'yiladigan): bolalar chizgan rasmlarni namoyish qilish uchun uchta reykali doskalar; natura uchun taglik; stolga qo'yiladigan doskalar – yig'ma molbertlar (katta guruhlar uchun) va boshqalar kerak bo'ladi.

Guruhda seksiyalardan biriga lenolium, ikkinchisiga flanel qoplangan, uchinchisiga esa reyka qoqilgan, uch seksiyali komblnatsiya qilingan, devorga o'rnatiladigan doskaning bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bolalarning ko'rish faoliyatini saqlash maqsadida katta guruhlarda sathi qiya turadigan individual taxtalardan foydalanish ma'qul, chunki bunday taxtalar nuring ko'zga burchak ostida emas, balki perpendikular yo'nالishda tushishini ta'minlaydi.

**Bo'yoqlar.** Rasm solishda suvli bo'yoqning ikki turi – guash va akvareldan foydalaniadi. Maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun pastasimon, shaffof bo'Imagan bo'yoqlar – guash qulaydir.

Bo'yoq mo'yqalamda turadigan, undan tomib tushmaydigan suyuqroq, qaymoq quyuqligida qilib aralashtirilishi kerak. Bolalar bo'yoqlar rangini ko'rib turishlari uchun qirralari past shaffof idishlarga qo'ygan ma'qul.

Yoplq qopqoqcha polletlen idishlardagi guash bo'yoqlardan foydalanish qulay: tarbiyachilar bo'yoqni ularning o'zida tayyorlaydilar va mashg'ulotdan so'ng ularni boshqa narsaga qo'y may qoldiraveradilar. Bunda bo'yoq tejamkorlik bllan sarflanadi. Tarbiyachi bo'yoqning kerakli rangini chiqarishni bilishi kerak. Akvarel bo'yoqlar katta va maktabgacha tayyorlov guruhlari bolalariga tavsiya qilinadi. Akvarel bo'yoqlarining farqlovchi xususiyat – kukun qilib maydalangan pigment va ko'p miqdordagi yopishtiruvchi moddalardan (bog'lovchi sifatida) iborat. Kukun qilib foydalanilganligi tufayli akvarel bo'yoqlarning asosiy fazilatiari shaffoflik kasb etadi.

Hozirgi kunda akvarel har xii ko'rinishda: qattiq – plita shaklida, yarim yumshoq – chinni shaklchalarda va yumshoq tyubikchalarda ishlab chlqarilmoqda. Maktabgacha ta'lif muassasalari sharoitlarida yarim yumshoq (shaklchalardagi) akvareldan foydalanish ma'qulroq. Bolalarning akvarel bo'yoqlardan xuddi guash bo'yoqlari blian rasm solgandek foydalanishlariga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bolalar akvarel bo'yoqlari bilan rasm solar ekanlar, predmetlar konturini oldin qog'ozga oddiy qalam bilan tushiradilar. Mashg'ulotlar hamda bolalarning mustaqil badiiy va ijodiy faoliyatları uchun pastel – turli rangdagi yo'g'on sterjenchalar tavsiya etiladi. Pastel to'plamida har biri bir nechta tusga ega bo'lgan beshta rang bo'ladi, buning o'zi ish uchun tayyor palitradir. Pastel qattiq, yumshoq va o'rtacha turlarga bo'linadi. Bolalar uchun yumshoq pastel tavsiya etiladi. Bu bo'yoq ehtiyyotkorlik blian munosabatda bo'lishni talab etadi, chunki u oson uvalanadi, sinadi. Shuning uchun pastel sterjenining har blrini zar qog'ozga o'rash kerak bo'ladi. Rangli mum bo'rlar sterjen ko'rinishida 12 tadan 36 tagacha rangda to'plam qilib sotiladi. U bilan ham xuddi pastel singari rasm solinadi. Rangli mum bo'rlarning afzalligi shundaki, ular bilan qalam chizig'i qalinligidagi chiziqni chizish mumkin. Shuning uchun mum bo'rlar bilan rasm chizishda oddiy qalamdan foydalanilmaydi. Rangli bo'rlardan mashg'ulotlardan bo'sh vaqtarda taxta (doska)ga rasm chizishda foydalanlladi. O'chirish uchun ikkita – quruq va ozgina namlangan latta kerak: qurug'i bilan xatolar yo'qotiladi, rasmga bo'r changi (kukuni) tushunilib, ayrim joylari xiralashtiriladi: ho'lli bilan eng to'q joylari oqartiriladi, oxirida esa rasm doskadan o'chiriladi. Rasm solishga mo'ljallangan ko'mir uzunligi 10–12 sm va diametri 5–8 mm bo'lgan yirik sterjenden iborat bo'ladi. U yumshoq, sinuvchan, uqalanuvchan material bo'lganligi uchun zar qog'ozga o'ralishi kerak. Ko'mir to'q, xira-qora iz qoldiradi. Ko'mir bilan ishlashda uning changini saqlab qoladigan tukli qog'ozlar – gulqog'oz, o'rash uchun ishlatiladigan va rasm solish qog'ozlari ishlatiladi. Agar ko'mir bilan ishlangan rasm ustidan paxta tamponni ozgina ho'llab, rasm solingan qog'oz sathidan vertikallga engil surib chiqilsa, bo'yoq yanada mustahkamlanadi.

**Quyuq bo'yoqlarning** eng yaxshilari toza, ochiq ranglilari badiiy bo'yoqlar deyilib, germetik yopiq idishlarda bo'ladi. Bo'yoq tanlashda nafaqat ularning rangiga, balki xususiyatlariha ham e'tibor berish kerak.

Qog'ozni bo'yashda sabzavot va mevalarni, ya'ni qizil sabzi, sariq sabzi, lavlagi, o'sma, turp, pomidor, mandarin suvlarini siqish orqali bo'yoq tayyorlashimiz mumkin. Ularni qirg'ichdan yoki maydalab to'g'rash orqali siqib olindi. Hosil bo'lgan ranglarni alohida og'zi berkitiladigan idishlarda saqlanadi.

**Akvarel bo'yoqlar** suvda eritildi, tyubikchalardagi akvarel bo'yoqlardan foydalanish juda qulay.

**Moybo'yoqlarning** tayyor aralashtirilganini olish lozim. Quyuq pastasimonidan foydalanish mumkin.

**Qalamlar.** Rasm solish uchun bolalarga rangli qalamlar to'plami kerak: kichik guruhda beshta qalamdan (qizil, ko'k, yashil, sariq va qora); o'rta guruhda oltita qalamdan (qizil, ko'k, yashil, sariq, qora va jigarrang) foydalaniladi; katta guruhlarda yuqorida aytiganlardan tashqari, qizg'ish, binafsha rang, to'q qizil, pushti, zangori, och yashil ranglar qo'shiladi. Klchik guruhlarda qalamlar dumaloq bo'lishi kerak. Katta guruhlarning bolalanga yumshoq grafit qalamlar («Shkolnoe», «Iskusstvo» 1,2-raqamli) tavsiya qilinadi. Qalamni ishlatishga tayyorlashda yog'och qatlami 25–30 mm olinib, grafiti 8–10 mm ochiladi (rangli qalamlarning yog'ochi kamroq olinishi kerak, chunki ularning o'zaklari yo'g'onroq, qattiqroq bosganda uvalanib, sirib ketadi).

**Mo'yqalamlar.** Bo'yoq bilan rasm chizish uchun tuki yumshoq va elastik – bo'rsiq, olmaxon va shu kabilarning qilidan qilingan dumaloq mo'yqalamlar kerak. Mo'yqalamlar raqamlariga ko'ra farqlanadi: 1–8 ingichka, 8–16 yo'g'on. Kichik guruh bolalariga 12–14 raqamli mo'yqalamlarni berish tavsiya qilinadi. Bunday mo'yqalam qog'ozga bosilganda yorqin, yaxshi seziladigan iz qoldiradi, predmetning shaklini berishni osonlashtiradi. O'rta va katta guruhlar bolalariga ham ingichka, ham yo'g'on mo'yqalamlarni berish mumkin.

Bolalarning mo'yqalamlardan foydalanishlari kuzatilar ekan, eng avvalo, ular uni to'g'ri ushslashni bilishlariga, tarbiyachi buni eslatishi va ko'rsatishiga: mashg'ulot vaqtida va tugagandan so'ng bolalar mo'yqalamni taglikka qo'yishlariga (tarblyachi tagliklarni qalin kartondan yoki uzunasiga ikkiga qirqilgan g'altakdan tayyorlashi mumkin) e'tibor berish kerak. Bolalarga mo'yqalamni suvli bankada qoldinshga ruxsat bermaslik lozim, bunday qilinganda uning tuki egiladi, har tomoniga tarqab, shaklini yo'qotadi. Agar tukli mo'yqalamlarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'linsa, ular uzoq muddat xizmat qiladi. Mashg'ulot uchun bo'yoq tayyorlashda uni mo'yqalam bilan aralashtirmaslik kerak, buni cho'p bilan bajarish ancha qulay. Akvarel bo'yog'i bilan rasm solishda mo'yqalamning tuklari yelpig'ich singari tarqab ketmasligi uchun uni bosmasdan, bo'yoq yengil yarim aylana harakat bilan olinadi. Ish tugagandan keyin, bo'yoq qurib qolmasdanoq, mo'yqalam yaxshilab yuvilladi. Mo'yqalamlarning mo'yini stakanda yuqoriga qilib saqlash tavsiya qilinadi. Mudira mashg'ulot boshlanishidan oldin, qog'oz qanday tayyorlanganligini ko'radi. Rasm solish uchun anchagina qaiin, biroz g'adir-budur qog'oz (yaxshisi, yarim vatman) kerak. Qalin yozuv qog'ozi uning o'rnini bosishi mumkin. Rasm solish uchun ustida qalam deyarli iz qoldirmay sirpanadigan, yaltiroq va qalam kuchliroq bosilganda yirtilib ketadigan yupqa qog'ozlar yaramaydi. Ish vaqtida qog'oz qimirlamay, blr tekis turishi kerak (bolalar qog'oz holatini o'zgartirishlari mumkin bo'lgan manzarali rasmlar solish bundan mustasno).

Kichik guruh bolalariga rasm solish uchun yozuv qog'ozni kattaligidagi qog'ozni berish tavsiya qilinadi u bolaning qo'lini yozgandagi kenglikka muvofiq keladi. O'rta va katta guruh bolalariga alohida predmetlarning tasvirlari uchun yozuv qog'ozining yarmini (butun qog'ozdan ham foydalanish mumkin) berish tavsiya qilinadi: mazmunli rasmlar uchun kattaroq shakldagi qog'ozni berish kerak. Rasm solish uchun qog'oz tayyorlar ekan, tarbiyachi tasvirlanadigan predmetning tuzilishini va o'lchamini hisobga olishi lozim.

Guash bo'yoqlar bilan rasm solishda to'yingan va yumshoq tondagi rangli qog'ozlardan foydalanildi. Katta guruh bolalari kerakli rangdagi qog'ozlarni mustaqil tayyorlay oladilar (qog'ozga tus berishda guash va akvarel bo'yoqlaridan hamda yo'g'on, yumshoq mo'yqalamlardan foydalanadilar: o'lchami unchalik katta bo'limgan yassi bo'yoq mo'yqalamlari – fleyslar qulaydir. Bo'yoq oldin gorizontaliga, so'ngra uning ustidan vertikal holatiga beriladi).

**Trafaret** – qalin qog'oz, yupqa karton, tunuka, plastmassadan tayyorlanadigan turli murakkabllkdagi naqshni tarkib toptiradigan tirqishlar qilingan plastinka. Trafaretdan ko'p karra takrorlanuvchi rasmlar, harflar, yozuvlarni olishda foydalaniladi.

Trafaret orqali mo'yqalamda bo'yoq beriladi. Bu maqsadda maxsus mo'yqalamlardan foydalanish mumkin. Mo'yqalam blan beriladigan bo'yoq quyuqroq bo'llshi kerak, aks holda u trafaret tagiga oqib tushishi mumkin. Ko'p rangli rasmlarni bajarishda bo'yoqlar belgilangan izchillikda tartib bilan beriladi.

Trafaret, shablon tayyorlash uchun tasvir chizib va kesib olinadi, so'ngra qaychini uzmasdan qirqishga harakat qilinadi. Agar uzib-uzib qirqilsa, tasvir noto'g'ri chiqishi mumkin. Trafaret, shablon ikki xil usulda bo'ladi:

1. Oddiy trafaret.
2. Murakkab trafaret.

Oddiy trafaret deb, blr qismdan iborat bo'lgan tasvirga aytildi.

Murakkab trafaret deb, 3–4 qismdan iborat bo'lgan shaklga aytildi. Har blr bajarilayotgan ishga e'tibor, mehr, did, farosat talab etiladi.

**Shablon** – butkul qabul qilingan namuna. Keramika sanoatida lagan, tarelka, chashkalarni tayyorlashda doira shablon qo'llianiladi. Doira va qaytarma shablondan simmetrik shakldagi modellarni yasashda foydalaniladi.

Oddiy, murakkab trafaret va shablon namunalari: kartoshka' po'kak va o'chirg'ichdan yasalgan muhrdan foydalanib chizilgan rasmlar bolalar uchun qulaylik yaratadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining katta va tayyorlov guruqlarida ko'ngil-ochar soatlarini mazmunli o'tkazish uchun shablon, muhr, trafaret yordamida ertak qahramonlari tayyorlanadi.


Qog'ozni bo'yashda quyidagi bo'yoq va moslamalardan foydalaniladi:




## ILLUSTRATIV MATERİALLAR

Kichik guruh uchun «Ilk qadam» dasturi asosidagi rasm namunalari


Mavzu: «Sochiqni bezash».



Mavzu: «Sehrli qalamchalar».



Mavzu: «Rangli kubiklar»



Mavzu: «Yomg'ir yog'moqda».




Mavzu: «Tipratikan».




Mavzu: «Patir non».



Mavzu: «Teshkulcha».




Mavzu: «Rangli tugmachalar».




Mavzu: «Narvon».




Mavzu: «Quyoncha uchun uycha».



Mavzu: «Apelsinlar».



Mavzu: «Gantel».



KATTA GURUH «ILK QADAM» DASTURI

Mavzu: «Sehrli bayroqchalar».




Mavzu: «Tabiiy materiallardan bostirish usulida rasm chizish».




Mavzu: «Idishlarga paxta tasvirini chizish».




Mavzu: «Mening sevimli mashinam».




Mavzu: «Transport turlari».




2




4



2






3




4



2



4






1





2




3



4



Mavzu: «Suv do'st va do'st emas».



Mavzu: «Mening qahramonim».



Mavzu: «Qish».





Mavzu: «Biz badantarbiya qilamız».



Mavzu: «Dekorativ rasm. Qo'g'irchoq kiyimini bezatamiz».



Mavzu: «Bizning baland archa».



Mavzu: «Mo'jizakor qish». Rasm ko'rik-tanlovi.




Mavzu: «Suratingni chiz».



Mavzu: «Bu men».




Mavzu: «Kamzulni qozoq milliy naqshlari bilan bezaymiz».





Mavzu: «Rus milliy naqshlari albomlarini ko'rish  
va xohishga ko'ra rasm chizish».



Mavzu: «Bizning Yer sayyoramiz».




Mavzu: «Quvnoq quyoshcha».



Mavzu: «Gullagan daraxt».



Mavzu: «Ninachi».




Mavzu: «Bahorgi bog'».



Mavzu: «Keldi bahor».



Mavzu: «Biz Oyga uchamiz».



Mavzu: «Sun'iy yo'ldosh».



Mavzu: «Bizning Yer sayyoramiz».



Mavzu: «Yer yuzi nimalardan iborat?» (Jamoat ishi).



Mavzu: «Kelajakdagi koinot».



Mavzu: «Mebel».




Mavzu: «Oshxona idishlari».




Mavzu: «Dazmol».



Mavzu: «Kompyuter».



Mavzu: «Mening oilam».



Mavzu: «Qafasdagi qush».



Mavzu: «Bug'doy dalasi».



Mavzu: «Paxta dalasi».



Mavzu: «Bizning Yer sayyoramiz».



Mavzu: «Sun'iy yo'ldosh».





Mavzu: «Kelajak avtomobili».




Mavzu: «Yordamchi mashinalar».



Mavzu: «Transport turlari».




Mavzu: «Noklar».



Mavzu: «Menga qaysi sport turi yoqadi?».



Mavzu: «Dekorativ rasm. Kiyimni chiroyli naqsh bilan bezash».



Mavzu: «Sehrli qish».



Mavzu: «Mening oilam».




Mavzu: «Ezgulik daraxti».



Mavzu: «Tulporni bo'ya».





Mavzu: «Milliy naqshlar».





Mavzu: «Uy».



Mavzu: «Bayramona shahar» (grattaj usulida chizish).



Mavzu: «Qushlar».



Mavzu: «Sayyoralarni chizamiz».



Mavzu: «Choy ichish uchun serviz».



Predmetli rasm chizish.


①



②



③



④



①



②



③



④




①




③



②



④



①



③




②




④





Dekorativ rasm chizish.







Noan'anaviy tasviriy faoliyat namunaları.






Kaft bilan chizish.






Nam qog'ozda chizish.



Barglar bilan chizish.






Trafaret bilan chizish.




<https://youtu.be/9wQLiZRM4Eg>



<https://youtu.be/fCEDam9l6f4>







<https://youtu.be/7mvMU2pScHQ>




Sham bilan chizish.





Rangli pufakchalar bilan chizish.








<https://youtu.be/hWjWyIZW98w>



Barmoqlar bilan chizish.







## TASVIRIY SAVODXONLIKNI BAHOLASH

Maktabgacha ta'lif muassasalarida olib borilayotgan o'quv-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligi bir qator omillarga bog'liq.

MTMning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, maktabgacha ta'lif dasturlarini ishlab chiqish, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar, o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lifning qamrovini kengaytirish, uning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish shular jumlasidandir. Bu jarayonda maktabgacha ta'lif muassasalari tarbiyachi-pedagoglari, shuningdek, ota-onalar e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlar ham mavjud. Bular: bolalarning faoliyatni natijalarini tahlil qillish, baholash hamda ularga to'g'ri yo'nallish berish bilan belgilanadi. Shu ma'noda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy, xususan, tasviriy faollyati natijalarini baholash muhim didaktik ahamlyatga molik. Biroq kichkintoylarning ishlarini tahlil qilish va baholashning ommabop mezonlari va metodikasi yo'qligi bois ko'p hollarda ularning ishlari noto'g'ri talqin etilishi mumkin. Chunki bolalar badliy qiziqishlarining aynim yo'nalishiari, xususan, tasviriy faoliyatda ularning yoshi ulg'ayishi bilan susayib borish holatlari kuzatiladi. Bolalarning badiiy-ijodiy qiziqishlarining mantiqiy-motivatsion mexanizmlari murakkab jarayonlardan iborat bo'lganligi uchun ham uni to'g'ri tashxislash va unga mos yo'nalish berish uchun maxsus ishlab chiqilgan pedagogik tizim talab etiladi.

Tajriba va kuzatishlar natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, kichkintoylarda tasviriy faoliyatga qiziqishning pasayib borishi tarbiyachilar, ota-onalarning bu jarayonga muayyan pedagogik kompetensiya asosida qaramasliklari oqibatida yuzaga keladi. Aslida har qanday faoliyat natijasi baholanishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyatni baholashda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

- *Tasvirning mazmuniga e'tibor qaratish.* Har qanday tasvir muayyan mazmunga ega bo'lmog'i lozim. Bolaning ishini baholashda tarbiyachilar o'ziga xos pedagogik taktikaga asoslangan holda ijodiy ishlarning sharhini tinglashlari, bu sharhning nechog'liq hayotiyligiga qarab baholashlari tavsiya etiladi. Ayni paytda ularning fantaziyasida ayrim me'yorlar chegarasidan chiqish holati kuzatilganda, bu jarayon shu yoshdagi bolalar uchun xos bo'lgan voqelik ekanligini ham e'tiborga olish kerak.

- *Tasvirning mazmun va shakl mutanosibligini ko'rsatish.* Tabiatdag'i har bir narsa o'z shakliga ega va ularning bir-biriga muvofiqligi har qanday mantiqiy

aloqadorlikning asosi hisoblanadi. Shu bois mazmun va shakl mutanosibligi tasviriy faoliyat natijalarini baholashda muhim ko'satkich hisoblanadi.

Tasviriy san'at bo'yicha savodxonlik darajasini belgilovchi omillar obyektning tuzilishini to'g'ri ko'ra olish, mantiqiy aloqadorlikdagi shakl – sujet-kompozitsiya yaratishdan iborat. Tasvirni tahlli etishning eng oddiy metodikasi sifatida buyumlar tasvirining geometrik shakllarda qanchalik aks ettirilganligiga, ya'ni buyumning qismlari o'zaro aloqadorlikda to'g'n joylashtirilgan (tasvirlangan)ligiga e'tibor qaratiladi.

Har qanday buyumning tomonlari o'zaro muayyan nisbat (proporsiya)larda ifodalanadi. Proporsiyani tasvirda to'g'ri ifodalash buyumning o'ziga xosligini ochib berishning muhim shartlaridan blri hisoblanadi. Aksincha bo'lса, bunda buyumning xususiyatini ochib berish imkonи cheklanadi.

Tasviriy faoliyatning asosiy talablaridan yana blri tasvirning kompozitsiyasi sanaladi. Maktabgacha ta'llimning katta va matabga tayyorlov guruhlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining didaktik vazifalaridan blri – bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishdan iborat. Mantiqiy fikrlash esa faqat og'zaki nutq bilan bog'ilq emas. Bu ko'satkich bolalarning tasviriy faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi, ya'ni bola u yoki bu tasvirni nlma maqsadda aynan shunday ifodalaganini ma'lum qoidalarga bo'ysundirgan holda amalga oshiradi. Tasviriy san'atda uni kompozitsiya, ya'ni tasvirdagi barcha elementlarni bir mantiqiy mazmunga bo'ysundirish, birlashtirish deb ataymiz.

Kompozitsiya har qanday tasviriy san'at asarining asosi bo'lganidek, bolalarning tasviriy faoliyati natijalarini tahlil qillish va baholashning muhim sharti hisoblanadi. Bu ko'satkich bo'yicha bolalarning ishlari tasvirning xarakteridan kelib chiqqan holda qog'oz shaklining (vertikal yoki gorizontal) to'g'ri tanlanganligi, tasvirning qog'oz sathida to'g'ri joylashtirilganligi (bunda qog'oz o'lchamiga monand tarzda tasvirning qog'oz yuzasida aks ettirilganligi) nazarda tuttiladi. Juda katta (qog'oz chetlarida bo'sh joy qolmagan) yoki juda kichik (qog'oz sathida haddan ortiq bo'sh joylar qoldirilib, tasvir juda kichik tushirilgan) qilib tasvirlangan ishlarni baholashda yuqorida shartlarning bajarilgan yoki bajarilmaganiga ahamiyat qaratish kerak.

Bolalarning tasviriy faoliyat natijalarida harakat (dinamika)ning ifodalaniishi ularning yoshida biroz murakkablik tug'dirishi bois, ulardan bu ko'satkichni bekam-ko'st ifodalash talab etilmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy-ijodiy fantaziyalarini namoyon qilishlari uchun ranglar keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Shu ma'noda ularning tasviriy faoliyat natijalarida ranglarning to'g'n ifodalanganligiga

e'tibor qaratiladi. Chunki rang tasviriy faoliyat natijalarining mazmun va mohiyatini to'g'ri talqin etishning muhim shartlaridan biridir. Aks holda uning tuzilishi, shakli va dinamikasi qanchalik to'g'ri bo'lmasin, kompozitsiya mantiqiy yechilm topmaydi. Bu parametrning haqiqlylik maqomini belgilash biroz murakkab kechishi mumkin. Chunki tasviriy san'atda ramzlylik shakllar bilan bir qatorda, ranglar vositasida ham yechiladi. Bolalarning tasviriy faoliyati natijalarini rangshunoslik yechimiga ko'ra ikki yo'nalishda baholash mumkin: 1. Tasvirda qo'llanilgan ranglarning realligi, ikklnchi yo'nalishda esa, shartli dekorativliliqi e'tiborga olinadi. 2. Bolalarning vaziyatga (sujetga) ijodiy yondashgan holda rang tanlaganligi ham diqqat markazida bo'lmoshi lozim.

Zero, ranglardan shartlik prinsiplariga asoslangan holda ramziy-mantiqiy yechilm topish ijodiy yondashish, izlanish namunasi hisoblanadi. Shu bois tarbiyachilar tasviriy savodxonlik asoslarini egallashning dastlabki bosqichlarida bolalarga ranglardan reallik qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda foydalanishni o'rgatishlari maqsadga muvofiq. Reallik qonuniyati deganda, anglab bo'lmas falsafly tushunchalar emas, balki tasviriy savodxonlikning elementar qonuniyatlariga asoslariishi, ya'ni bolalarning tasviriy faoliyat natijalarini tahlil qilish va baholashda ranglarni buyumlarning funksiyasidan kelib chiqqan holda to'g'ri tanlaganligi nazarda tutiladi. Bolalarning tasviriy faoliyat natijalarini tahlil qilish va baholashga uzuksiz tarzda tashkil etilgan hamda o'zaro uzviy aloqadorlikdagi ta'limiy jarayonning kuzatish vositasi sifatida qarash ham mumkin. Bu yondashuv bolalar tasviny faoliyatining barcha turlari – rasm chizish, haykaltaroshlik, applikatsiya va konstruksiyalash mashg'ulotlariga ham tatbiq etiladi.

Rasm chizish, plastilindan narsalar yasash, applikatsiyalar bilan ishlash bolalar uchun qiziqarli mashg'ulotdir. Rasm chizish va plastilindan buyumlar, narsalar yasash, applikatsiya va mozaikalar ishlash muktabgacha yoshdagagi bolalar uchun har qanday shubhalardan xolidir. Chunki bunda mayda qo'l motorikasi rivojlariishidan tashqari bola o'ylab qo'ygan fikrlaridan ulkan maydon tuzadi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida turli xil materiallardan foydalanib applikatsiyaning predmetli, sujetli-tematik, dekorativ turlarida tasvirlashga o'rgatish bolalarda fikrlash, tasavvur, aniqlik, rang va shakllarni tezda farqlay olish xususiyati, o'zgarib turuvchi sharoitlarda harakatlanish, original yechimlarni izlash kabi xususiyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Tasavvurni kengaytiradi, har xil materiallardan yaxlit bir obraz yaratish mahoratini shakllantiradi. Shuning uchun ham muktabgacha yoshdagagi bolalarni turli badiiy, tabiiy materiallar bilan turli noan'anaviy applikatsiya texnikalarida ishlashga o'rgatib borish o'rinnlidir.

Kichkintoylarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bola qo'liga ilk bor tasviriy material – qog'oz, qalam, kubik, rangli mum qalamcha (melki), flomasterlar tushganida boshlanadi. Bu paytda kichkintoyning tasviriy qibiliyatlarini rivojlantirish muhim o'ringa ega. Bola materialiar xususiyatlan bilan tanishadi, qo'lning turli harakatlarini o'zlashtiradi. Predmetlarning ongli tasviri paydo bo'lishi bilan qibiliyatlar rivojlanishida tasviriy davr boshlanadi. Bunday faoliyat ijodiy xarakterga egadir.

Qog'ozdan applikatsiya nafaqat qiziqarli, balki bolalar rivojlanishi uchun har tomonlama foydali hamdir. Applikatsiya mashg'ulotlari kichkintoyda o'zini baholashni, o'z imkoniyati va kuchiga ishonishni ham oshiradi. Fantaziya va ijod ranglarni idrok qilish, mayda qo'l motorikasini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar applikatsiyaning barcha jarayonlarini o'zlashtirib olishlari lozim. Bu jarayonga tayyorgarlik mashg'ulotlari sifatida mozaikall o'yinlar kiradi. Ular yordamida bolalar tayyor geometrik shakllarni yoyib, ularning o'ziga xosliklari – rangi va joylashish uslubi, naqsh yaratish usullari bilan tanishadilar. Applikatsiya jarayonini o'zlashtirish yopishtirmasdan shunchaki qirqishga ham o'rgatadi. Masalan, bolalar qaychidan foydalanishni o'rganishadi. Qog'ozni qlrqib, undan o'yln uchun bilet va do'kondan narsa olishga pullar, bayram uchun turli rangli bayroqchalar tayyorlaydilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida applikatsiya ishlarining tayyor shakllarni yopishtirish va shakllarni qirqib yopishtirish kabi turlari ham qo'llaniladi. Kichkintoylar shakllarni bo'laklab yoki siluet shaklida qlrqib olishlari ham mumkin. Shunga ko'ra, buyumning ko'rinishini alohida bo'laklardan yaratish oson bo'ladi. Siluet tasvirlarni qirqish maktabgacha yoshdagи bolalar uchun qulay va oson usuldir. Lekin sliuet ko'rinishida katta shakliarni qirqish esa faqat tayyorlov guruhlari uchun mo'ljallangan. Applikatsiya bolalarda turli materiallar va ularning o'ziga xosliklari bilan tanishish, fantaziya, tasavvur, ijodiy qibiliyatlar rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarga ega. Naqshlarni tayyor geometrik yoki o'simlik shakllaridan tashkil qilish mumkin. Tayyor shakllarni dekorativ ishlarda qo'llash bolalarga naqsh elementlarini ritmik ketma-ketlikda tanlashda, diqqatni jamlashda yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagи bolalarning applikatsiya mashg'ulotlarida olgan malakalari kelgusida konstruksiyalashtirishda va archa o'yinchoqlarini hamda turli dekorativ bezaklarni yasashlarida qo'l kelishi mumkin. Shuni aytib o'tish kerakki, ba'zida qirqilgan shakllar xonani bezatish uchun ishlatilavermaydi. Masalan, qog'oz sochiqlar, to'rlar tokchalarni bezatish uchun, rang-barang shakllar esa, oynani bezatish uchun va h. k. Mato, jun va teni qiyqlmlari kiyimni bezatishda, panno

qilinganda ishlatiladi. Ba'zida qirqilgan shakllar fonga butunlay yopishtirilmaydi. Masalan, gulbarglar applikatsiyasini ishlashda ularning o'tasigina yopishtiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodi uchun applikatsiya sodda va oson bo'lishi kerak. Kichkintoylar tayyor berilgan shakllardan kompozitsiya tuzishlarida qiyinchilik tug'ilmasligi lozim. Shu tarzda applikatsiya mashg'ulotlari, bolalarda blr tomondan, tasvirlashdagi faolligining shakllanishiga, boshqa tomondan esa, ijodiy qobiliyatlari rivojlanishiga yordam berishi kerak.

Bolalarning ijodiy qibiliyatlarini applikatsiyalar orqali shakllantirish barcha maktabgacha ta'lif muassasalari oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davridayoq bolada kasbga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi. Bu uning kelajakda ma'lum blr sohani to'g'ni tanlay olishini kafolatlaydi. Bu orqali bolada qobiliyat shakllanadi. Pedagogikada qobiliyat deganda shaxsning biror-bir soha (kasb)ga oid qiziqishini yuksak kasbly salohlyat bilan bajarishga asos bo'luvchi, bu jarayonda yangilikka intlluvchanlikda namoyon bo'luvchi individual-psixologik xususiyat tushuniladi. Qobiliyatlar ichida intellektual hamda hamma sohada hal qiluvchi ahamiyat kasb etuvchi ijodiy-kreativ qobiliyatni tarbiyalash alohida e'tiborga molik. Kreativlik deganda ijodkorlikni belgilovchi, yangi g'oyalarni namoyon etishga intiluvchanlik, nostandard vaziyatlarda to'g'ri qaror chiqara olishga qodirlik tushuniladi. Shuning uchun ham bola shaxsini shakllantirishning dastlabki bosqichlaridan oq uning ijodiy qibiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratish, unga mos ta'limly va tarbiyaviy jarayonni ta'minlovchi pedagogik tizim taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarning ijodiy qibiliyatları, tasavvurlari, fantaziyalarini rivojlanish uchun applikatsiya mashg'ulotlari juda katta imkoniyatlarga ega.

Applikatsiya texnikasi maktabgacha yoshdagi bolalar ijodi uchun qulay mashg'ulot tun bo'lib, ularning yoshiga ham aynan mos keladi. Tarblyachi-pedagoglar tasviriyl faoliyat mashg'ulotlarda bolalarni applikatsiya texnologiyasida tasvirlashga o'rgatishda quyldagilarga e'tibor qaratishlari kerak:

– bolalarga tayyor, aniq blr rangga bo'yagan turli shakllardan foydalanib tasvirlar tuzish;

– rangli qog'oz va kartonlardan foydalanib shakllarni qirqib olish hamda qo'lda maydalash orqali tasvirlashga o'rgatish;

– tayyor shakllar yordamida yoki namunali tasvir andaza shablonlari yordamida naqsh elementlari va tasviriyl sujetlarni qirqib kompozitsiya yaratish;

- tabliy materiallarning rang va tuzilishi, katta-kichikligidan foydalangan holda predmet, kompozitsiyalar tuzish;
- qiyqim matoiarning rang va guilaridan foydalangan holda shakllarni qaychida qirqib olib tasvirlash;
- monotipiya texnikasidan foydalanib tasvirlash;
- siluet qirqishga o'rgatish;
- qaychida shakllarni mayda bo'lakchalarga (to'rtburchak, uchburchak, doiracha, oval va h. k.) bo'lib tasvirlashga o'rgatish.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida mактабгача yoshдаги boialarning ijodiy qobiliyatларини rivojlantirish uchun turli badiiy, tabiiy materialлardan o'z o'rнida foydalanib, applikatsiya texnologiyasining xilma-xil usullаридан foydalanishга o'ргатиш kerak.

Applikatsiya mashg'ulotлари, bir tomonдан, tasviriy malakalarni shakllantirsa, boshqa tomonдан, uiarning ijodiy qibiliyatларини rivojlantiradi. Tabliy material bilan ishslash bolaning ona tabiatga nisbatan mehr-muhabbatini oshiradi, unga yaqinlashishiga katta imkoniyat yaratadi va ilk mehnatларining shakllanishini o'z ichiga oladi.

## BILIMLARNI TEKSHIRISH UCHUN TESTLAR

- 1. Tasviriy faoliyat qanday faoliyat turi hisoblanadi?**  
A) bolalarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat;  
B) bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi;  
C) bolalarni axloqiy tarblyalovchi faoliyat turi;  
D) bolalarning estetik sezgisini rivojlantiruvchi jarayon.
- 2. Maktabgacha yoshdagি bolalarni rasm chizishga o'rgatishda qanday metod va usullardan foydalaniladi?**  
A) amaliy metodlar;  
B) og'zaki metod va o'rgatish usullari;  
C) badiiy adabiyot obrazlaridan foydalanish;  
D) barcha javob to'g'ri.
- 3. Tasvirly san'atda naturadan foydalanish deganda nima tushuniladi?**  
A) kuzatish asosida predmet yoki ko'rinishni tasvirlash;  
B) alohida predmetlarni ko'rib chiqish;  
C) ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish;  
D) tarbiyachi tomonidan tasvirlash usullarini ko'rsatib berish.
- 4. Qaysi yosh guruhlarida bolalar tasvirlayotgan ishlarini naturaga nisbatan taqqoslashga urinadilar?**  
A) kichik guruhda;  
B) o'rta guruhda;  
C) katta guruhda;  
D) tayyorlov guruhida.
- 5. Qaysi yosh guruhlarida ko'plincha mashg'ulot boshida alohida predmetlar ko'rsatiladi?**  
A) kichik va o'rta guruhlarda;  
B) katta guruhlarda;  
C) maktabga tayyorlov guruhlarida;  
D) barcha yosh guruhlarda.
- 6. Rasm chizishga o'rgatishda namunadan foydalamish qaysi usul sira-siga kiradi?**  
A) kuzatish;

- B) o'rgatish;  
C) namoyish etish;  
D) suhbat.
7. Tarbiyachi tasvirlash vositalarini ko'rsatib berishda necha xil ko'rsatmani qo'llaydi?
- A) 1;  
B) 2;  
C) 3;  
D) 4.
8. Rasm chizishga o'rgatishda tarbiyachi ko'rsatmasi qanday bo'ladi?
- A) imo-ishora bilan ko'rsatish;  
B) rasmlardan foydalanish;  
C) imo-ishora bilan ko'rsatish, chizish usull bllan ko'rsatish;  
D) o'rgatish va ko'rgazmali.
9. Bolalarning o'zлari yoki do'stlari bajargan ishni mustaqil ravishda tahlil qilib, baho berishlari necha yoshga borib to'la shakllanadi?
- A) 3-4 yosh;  
B) 4-5 yosh;  
C) 5 yosh;  
D) 6 yosh.
10. Tasviriy faoliyatda o'yinlardan foydalanish qanday usulga kiradi?
- A) ko'rgazmali amaliy o'rgatish usuli;  
B) kuzatish metodi;  
C) rasmlardan foydalanish;  
D) suhbat.
11. MTMdа bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishda rasm chizish turlari nechta va qaysilar?
- A) 1 ta alohida predmetni chizish;  
B) 2 ta alohida predmetni chizish, dekorativ rasm chizish;  
C) 3 ta alohida predmetni chizish, sujetli rasm chizish va dekorativ rasm chizish;  
D) 4 ta alohida predmetni chizish, sujetli rasm chizish va dekorativ rasm chizish, namuna asosida rasm chizish.

**12. Rasm chizish – bu...**

- A) predmet va hodisalarini grafika-rassomlik usulida tasvirlash bo'lib, uning asosi kolorit, shakl va kompozitsiya;
- B) rasm chizish texnikasining boshlang'ich malakalarini asta-sekin egallab, naqshning ba'zi elementlarini o'zlashtirish;
- C) predmetni kuzatish, bolalar rasmida uning xarakterli xususiyatlari ifodalashi;
- D) barcha javob to'g'ri.

**13. Tasviriy faollyatga o'rgatishning asosiy vazifasi qanday?**

- A) tevarak-atrofdagi borliqni tasavvur qilishda bolalarga yordam berish;
- B) bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantirish;
- C) estetik go'zallik hissini tarbiyalash;
- D) tasvirlab berish usullarini o'rgatish.

**14. Kichik guruhdha rasm chizishga o'rgatish vazifalari qaysilar?**

- A) rasm chizish jarayoniga qiziqishni uyg'otish;
- B) rasm chizish materiallari – qalam, bo'yoqlar va ulardan foydalanish usullari blian tanishtirish;
- C) katta yoshli odam chizgan rasmni, predmetning tasviri deb tushunishni o'rgatish;
- D) barcha javob to'g'ri.

**15. To'g'ri to'rtburchakli va aylanasimon shakldagi predmetlarni tasvirlash, ularning tuzilishini, asosiy qismi va qismlarini chizishga o'rgatish qaysi yosh guruhlaridan boshlab o'rgatlladi?**

- A) kichik guruh;
- B) o'rta guruh;
- C) katta guruh;
- D) tayyorlov guruhi.

**16. Qalam (shtrixlash usullari) va bo'yoqlar, mo'yqalam harakatlarining usullari bilan ishlashda texnik ko'nikmalarni rivojlantirish qaysi yosh guruhlarida o'rgatlladi?**

- A) kichik guruh;
- B) o'rta guruh;
- C) katta guruh;
- D) tayyorlov guruhi.

**17. Odam rasmini chizish bolalarga qaysi yosh guruhidan boshlab o'rgatiladi?**

- A) kichik guruh;
- B) o'rta guruh;
- C) katta guruh;
- D) tayyorlov gurushi.

**18. Mazmunli (sujetli) rasm chizish qaysi guruhdan boshlab o'rgatiladi?**

- A) kichik guruh;
- B) o'rta guruh;
- C) katta guruh;
- D) tayyorlov gurushi.

**19. Bolalarda rasm chizish malakasini rivojlantirish maqsadida necha xil predmetni ko'rsatish mashqlari bilan boshlash ma'qul?**

- A) 1–2 ta;
- B) 2–3 ta;
- C) 3–4 ta;
- D) 4–5 ta.

**20. Bola necha yoshdan boshlab predmetlarning yonma-yon joylashishini, odamlarning ko'rinishini faqat old tomondan, hayvonlarning ko'rinishini faqat yon tomondan bir yo'lda chiza oilsh qobiliyatiga ega bo'ladi?**

- A) 3 yosh;
- B) 4 yosh;
- C) 5 yosh;
- D) 6 yosh.

**21. «Qizcha uy atrofida o'ynayapti», «Qish, bolalar qorbobo yasayatilar», «Bo'g'irsoq», «Chilpor tovuq» mavzularidagi rasmlarni chizish qaysi guruhdagi bolalarga tavsiya etiladi?**

- A) kichik guruh;
- B) o'rta guruh;
- C) katta guruh;
- D) tayyorlov gurushi.

**22. «Bolalarning qishki o'yinlari», «Bog'chada senga nimalar qiziqarli shularni chiz», «Men onamga guldaста sovg'a qilyapman», «Quruv-**

**chilar yangi uy quryaptilar», «Ona bolani bog'chaga olib ketyapti, «Bolalar qorbobo yasayaptilar» mavzularidagi rasmlarni chizish qaysi guruhdagi bolalarga tavsiya etiladi?**

- A) kichik guruh;
- B) o'rta guruh;
- C) katta guruh;
- D) tayyorlov guruhi.

**23. Bolalarni dekorativ rasm chizish bilan tanishtira turib, nimalar haqida tasavvur hosil qilshga o'rgatish zarur?**

- A) ritm va simmetriya;
- B) ritm va sezgi;
- C) sezgi va idrok;
- D) mo'ljal olish.

**24. Dekorativ rasm chizishda asosiy vazifalardan biri – bu...**

- A) fazoda mo'ljal olishni o'rgatish;
- B) rangni his qilishni rivojlantirish;
- C) fantaziyani shakllantirish;
- D) tasavvur va qobiliyatni o'stirish.

**25. Dekorativ rasm chizish bolalarga necha yoshdan boshlab o'rgatiladi?**

- A) 3 yosh;
- B) 4 yosh;
- C) 5 yosh;
- D) 6 yosh.

**26. Bolalarni sujetli rasm chizishga o'rgatishdan maqsad nima?**

- A) fazoda mo'ljal olishni o'rgatish;
- B) rangni his qilishni rivojlantirish;
- C) bolaning atrof-muhitdan olgan taassurotlarini ifodalashga o'rgatish;
- D) tasavvur va qobiliyatni o'stirish.

**27. Syujetli rasm chizish qaysi guruhdan boshlab o'rgatiladi?**

- A) kichik guruh;
- B) o'rta guruh;
- C) katta guruh;
- D) tayyorlov guruhi.

**28. Bola necha yoshdan boshlab ma'lum mavzudagi rasmlarni chiza ollish qobilyatiga ega bo'ladi?**

- A) kichik guruh;
- B) o'rta guruh;
- C) katta guruh;
- D) tayyorlov guruhi.

**29. Bolalar tomonidan ishlanayotgan har bir rasmda predmetlarning hajmi, o'chovlarini chمالash bilan birga yana qanday tushunchalar o'rgatiladi?**

- A) uzoq-yaqin, oldinma-ketin, ustma-ust, ketma-ket joylash mumkinligi;
- B) tasavvur va fazoviy;
- C) aniq tartibda chiza olish malakasini shakllantirish;
- D) kuzatish va tasvirlash.

**30. Bo'yoqni puflash orqali rasm chizish qanday amalga oshliladi?**

- A) dog' orqali rasm chizish shundan iboratki, qog'ozga tushirilgan dog'ga obraz, shakl beriladi;
- B) bo'yoqni naycha orqali puflash, klyaksografiyani hosil qilish va puflab shakl hosil bo'lgach, uni nimagadir obrazga o'xshatadi;
- C) uzunligi 25–30 cm keladigan ikki qavatli ip turli bo'yoqlarga botirib chiqiladi;
- D) rasmni bitta bosh barmoqda emas, balki barcha barmoqlar ishtirokida chiziladi.

**31. Bolaga barmoq bilan rasm chizishga o'rgatish qanday o'rgatiladi?**

- A) dog' orqali rasm chizish shundan iboratki, qog'ozga tushirilgan dog'ga obraz, shakl beriladi;
- B) bo'yoqni naycha orqali puflash, klyaksografiyani hosil qilish va puflab shakl hosil bo'lgach, uni qandaydir obrazga o'xshatadi;
- C) uzunligi 25–30 cm keladigan ikki qavatli ip turli bo'yoqlarga botirib chiqiladi;
- D) rasmni bitta bosh barmoqda emas, balki barcha barmoqlar ishtirokida chiziladi.

**32. Bolaga nam qog'ozda rasm chizish qanday o'rgatiladi?**

- A) paxtani suvgaga botirib, qog'oz ustidan namlangan paxta surtib, qog'oz namlanadi. Qog'oz tayyor bo'lgach, turli rasmlar chiziladi;

- B) dog' orqali rasm chizish shundan iboratki, qog'ozga tushirilgan dog'ga obraz, shakl berish;
- C) bo'yoqni naycha orqali puflash, klyaksografiyani hosil qilish va puflab shakl hosil bo'lgach, uni qandaydir obrazga o'xshatadi;
- D) uzunligi 25–30 cm keladigan ikki qavatli ip turll bo'yoqlarga botirib chiqiladi.

**33. Bolalarga ip orqali klyaksografiyani hosil qilish qanday o'rgatliadi?**

- A) uzunligi 25–30 cm keladigan ikki qavatli ip turll bo'yoqlarga botirib chiqiladi, qog'oz qoq o'rtasidan ikkiga buklangan. Ikkiga buklangan qog'ozning o'rtasiga bo'yoqqa botirib olingan ipni qo'yib, ustidan qo'l bilan bosiladi, ipning uchidan ushlab sekin-asta sug'urib olinadi. Qog'ozni olib, hosll bo'lgan tasvirni ko'rib, obraz yaratiladi;
- B) paxtani suvga botirib, qog'oz ustidan namlangan paxta surtib, qog'oz namlanadi. Qog'oz tayyor bo'lgach, turli rasmlar chiziladi;
- C) dog' orqali rasm chizish shundan iboratki, qog'ozga tushirilgan dog'ga obraz, shakl beriladi;
- D) bo'yoqni naycha orqali puflash, klyaksografiyani hosil qilish va puflab shakl hosil bo'lgach, uni nimagadir obrazga o'xshatadi.

**34. Bolalarga sachratish usulidan foydalanib rasm chizishga o'rgatish qanday o'rgatiladi?**

- A) bo'yoq qog'ozning ustiga sachratiladi (PVA yelimi bilan aralashgan bo'yoq tish cho'tkasiga botirib ollnadi va karton yoki plastik orqall qog'oz ustiga sachratiladi;
- B) paxtani suvga botirib, qog'oz ustidan namlangan paxta surtib, qog'oz namlanadi. Qog'oz tayyor bo'lgach, turli rasmlar chiziladi;
- C) dog' orqali rasm chizish shundan iboratki, qog'ozga tushirilgan dog'ga obraz, shakl beriladi;
- D) bo'yoqni naycha orqali puflash klyaksografiyani hosil qilish va puflab shakl hosll bo'lgach, uni qandaydir obrazga o'xshatadi.

**35. Bolalar bilan rasm solishda suvli bo'yoqning qanday turlaridan foydalananamiz?**

- A) turli rang bo'yoqlar;
- B) guash va akvarel bo'yoqlari;
- C) PVA yelimi va rangli bo'yoqlar;
- D) rangli guash bo'yoqlari.

**36. Kichik guruhda rasm solish uchun rangli qalamlar to'plami nechta qalamdan iborat bo'lishi kerak?**

- A) beshta qalamdan (qizil, ko'k, yashil, sariq va qora);
- B) oltita qalamdan (qizil, ko'k, yashil, sariq, qora va jigarrang);
- C) ettiqa qalamdan (qizg'ish, binafsha, to'q qizil, pushti, zangon, och yashil, sariq);
- D) barcha javob to'g'n.

**37. O'rta guruhda rasm solish uchun rangli qalamlar to'plami nechta qalamdan iborat bo'lishi kerak?**

- A) beshta qalamdan (qizil, ko'k, yashil, sariq va qora);
- B) oltita qalamdan (qizil, ko'k, yashil, sariq, qora va jigarrang);
- C) yettiqa qalamdan (qizg'ish, binafsha, to'q qizil, pushti, zangon, och yashil);
- D) barcha javob to'g'ri.

**38. Katta guruhda rasm solish uchun rangli qalamlar to'plami nechta qalamdan iborat bo'lishi kerak?**

- A) beshta qalamdan (qizil, ko'k, yashil, sariq va qora);
- B) oltita qalamdan (qizil, ko'k, yashil, sariq, qora va jigarrang);
- C) to'rtta qalamdan (qizg'ish, binafsha rariq, to'q qizil, pushti zangori);
- D) barcha javob to'g'ri.

**39. Kichik guruh bolalariga necha raqamli mo'yqalamlarni berish tavsiya qilinadi?**

- A) 1–8 raqamil;
- B) 8–16 raqamli;
- C) 12–14 raqamli;
- D) barcha javob to'g'ri.

**40. Trafaret, shablon qanday tayyorlanadi?**

- A) tasvirni chizib, kesib olinadi, so'ngra qaychini uzmasdan qirqishga harakat qilinadi;
- B) uzib-uzib qirqib tasvir hosil qilinadi;
- C) qaychini uzmasdan qirqishga harakat qilinadi;
- D) tasvirni chizib, kesib olinadi.

**41. Trafaret, shablon necha xil usulda bo'ladi?**

- A) 2 xil;
- B) 3 xil;

C) 4 xil;

D) 5 xil.

**42. Oddiy trafaret qanday bo'ladi?**

- A) 3–4 qismdan iborat bo'lgan shakl;
- B) bir qismdan iborat bo'lgan tasvir;
- C) tasvirni chizib, kesib olinadi;
- D) qaychini uzmasdan qirqishga harakat qilinadi.

**43. Murakkab trafaret qanday bo'ladi?**

- A) 3–4 qismdan iborat bo'lgan shakl;
- B) bir qismdan iborat bo'lgan tasvir;
- C) tasvirni chizib, kesib olinadi;
- D) qaychini uzmasdan qirqishga harakat qilinadi.

**44. Shablon nima?**

- A) 3–4 qismdan iborat bo'lgan shakl;
- B) bir qismdan iborat bo'lgan tasvir;
- C) tasvirni chizib, kesib olinadi;
- D) butkul qabul qilingan namuna.

**45. Trafaret nima?**

- A) butkul qabul qilingan namuna;
- B) qalin qog'oz, yupqa karton, tunuka, plastmassadan tayyorlanadigan turli murakkablikdagi naqshni tarkib toptiradigan tirqishlar qilingan plastinka;
- C) 3–4 qismdan iborat bo'lgan shakl;
- D) bir qismdan iborat bo'lgan tasvir.

**46. MTMda bolalarga rasm chizishni o'rgatish mashg'ulotlari uchun haftasiga necha soat ajratiladi?**

- A) 0,5 soat;
- B) 1 soat;
- C) 1,5 soat;
- D) 2 soat.

**47. MTMda qaysi metod tasviriy faollyatga o'rgatish tizimining umumiy asosini tashkil qlladi?**

- A) kuzatish metodi;
- B) ko'rgazmali metod;

C) og'zaki metod;

D) suhbat.

**48. Tasviriy san'atda naturadan foydaianish deganda nima tushuniladi?**

A) kuzatish asosida predmet yoki ko'rinishni tasvirlash;

B) predmet ko'rinishini tasvirlash;

C) tekislikda tasvirlangan predmetni faqat bir tomonidan idrok qilish;

D) predmetning shaklini, tuzilishini, rangini to'g'ri tushunib, yetkazib bera olishga yordam berish.

**49. Kichik guruhdagi «Bayroqchani bo'yash» mavzusida ish boshlashdan avval bolaga nimalarni kuzatish tavsiya etiladi?**

A) chizilgan bayroqchalarni kuzatish;

B) bolalarga bayroqchalarni berib hilpiratish va uni ko'nib chiqish;

C) gullarni kuzatish;

D) bayroqchalarni tartib bilan toza bo'yash.

**50. Rasm chizishda namuna nima uchun qo'yiladi?**

A) tasvirlanayotgan predmet haqidagi tasavvurni aniqlash uchun;

B) predmetli rasm chizish yoki buyum yasashda namuna ko'chirib olish uchun;

C) tarbiyachining ko'rsatmasisiz mustaqil ravishda ishlash uchun;

D) bolalar predmetni idrok eta olishi uchun.

**51. Necha yoshdagiga bolalar rasmni predmet tasviri sifatida tushunib yetadilar?**

A) 2 yosh;

B) 3 yosh;

C) 4 yosh;

D) 5 yosh.

**52. Maktabgacha yoshdagiga bolalarda rasmdagi qahramonlarning o'rtasidagi bog'liqlikni, ya'ni harakatlarni tushunish necha yoshda rivojlanadi?**

A) 3–4 yosh;

B) 4–5 yosh;

C) 5–6 yosh;

D) 6–7 yosh.

- 53. O'rta guruhda rasm chizishga o'rgatishda suhbat o'tkazish usulidan foydalanish necha daqiqa davom etishi kerak?**
- A) 5–10 daqiqa;
  - B) 10–15 daqiqa;
  - C) 3–5 daqiqa;
  - D) 15–20 daqiqa.
- 54. Bolalarni rasm chizishga o'rgatishda badiiy adabiyot obrazlarining qaysilaridan ko'proq foydalaniladi?**
- A) ertak va hikoyalardan;
  - B) she'r, hikoya, topishmoqlardan;
  - C) tez aytish va sanamalardan;
  - D) barcha javob to'g'ri.
- 55. Tasviriy faoliyatda o'yiniardan foydalanish qaysi usullar sirasiga kiradi?**
- A) kuzatish metodi;
  - B) ko'rgazmali amaliy o'rgatish usuli;
  - C) suhbat o'rgatish metodi;
  - D) amaliy metod.
- 56. Tayyorlov guruhlariда mashg'ulotiar necha daqiqa davom etadi?**
- A) 5–10 daqiqa;
  - B) 10–15 daqiqa;
  - C) 15–20 daqiqa;
  - D) 25–30 daqiqa.
- 57. Rasm chizishga o'rgatish masbg'ulotiarida tarbiyachi nimaiarga e'tibor beradi?**
- A) tarbiyachi albatta o'zi tanlagan natura, o'yinchoq, illustratsiya va o'zi bolalarga nisbatan qayerda turishi kerakligini aniqlab olishga;
  - B) kerakli jihozlarni o'z ornida foydalanishga;
  - C) bolalarni mashg'ulotga mustaqil tayyorlashga;
  - D) bolalarning yoshi va yosh xususiyatlarga.
- 58. Mashg'ulotni o'tkazish asosan necha qismda olib borliadi?**
- A) 3 qism – mashg'ulot boshlanishi, borishi va yakunlash;
  - B) 4 qism – mashg'ulot boshlanishi, borishi, yakunlash, rag'batlantirish;

- C) 5 qism – kirish, boshlash, bonshi, yakurilash va rag'batlantirish;  
 D) 6 qism – asosiy qism, borishi, tushuntirish, yakunlash, rag'batlantirish.

**59. MTMdA bolalarni rasm chizishga o'rgatishdan maqsad ni'ima?**

- A) tevarak-atrofdagi borliqni tasavvur qilishda bolalarga yordam berish;  
 B) tasvirlab berish usullarini o'rgatish;  
 C) ma'lum blr yosh uchuri mos tasviriy materiallar bilan har xil predmetlarning turli timsollarini yaratish;  
 D) bolalar ijodkorligini rivojlantirish.

**60. Bola necha yoshdan boshlab rasm chizish ma'nosimi tushunib eta boshlaydilar?**

- A) 3 yoshdan;  
 B) 4 yoshdan;  
 C) 5 yoshdan;  
 D) 6 yoshdan.

**TEST KALITI**

1	A	11	C	21	B	31	B	41	A	51	A
2	D	12	A	22	C	32	A	42	B	52	B
3	A	13	A	23	A	33	A	43	A	53	C
4	C	14	D	24	B	34	A	44	D	54	B
5	A	15	B	25	B	35	B	45	B	55	B
6	B	16	C	26	C	36	A	46	D	56	D
7	B	17	B	27	B	37	B	47	A	57	A
8	C	18	B	28	C	38	C	48	A	58	A
9	C	19	B	29	A	39	C	49	B	59	C
10	A	20	B	30	B	40	A	50	A	60	B

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib aytganda, shuni ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lif muassasalarida tasviriylar faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shaklantirishda tarbiyachining roli beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'llshi, buning uchun muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, o'zining ilmiy nazarini saviyasini tinimsiz ko'tarishi, ilg'or tajribalarga tayanishi kerak.

Rasm chizish mashg'ulotlari bolalarning estetik va badiiy didini, mazkur soxaga doir tushunchalari, tasavvur va xotiralarini o'stirishda muhim rol o'ynadi.

Eng asosiy maqsad zamonaviy tarblyachi pedagog orqali bolalardagi qibiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir.

Buning uchun ta'lif olayotgan har bir bolani tasviriylar faoliyatga moylligini, mavjud iqtidorllik qobiliyatini shakilantirib, uni amaliy, nazariy, ilmiy jihatdan rivojlantirish maqsad qilingan.

1. Maktabgacha ta'lifda tasviriylar faoliyat metodologiyasi oid psixologik – pedagogik, metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish.

2. Maktabgacha ta'lifda bolalarni tasviriylar faoliyatga o'rnatishda rasm turlari asosida namunalar tayyorlash.

3. Maktabgacha yoshdag'i bolalarga rasm chizishda ta'lif – tarbiya berish va rivojlantirishga oid ishlarni tashkil qilishda zamonaviy ta'lif metodlar samaradorligini o'rganish.

## TASVIRIY SAN'AT ATAMALARINING IZOHЛИ LUG'ATI

**Avtoportret** (*yunon. autos – o'z, frans. portrait – tasvir*) – portret janning bir turi. Avtoportretda rassom yoki haykaltarosh o'zini o'zi tasvirlaydi.

**Akvarel** (*ital. acquerello*) – suvda eruvchi bo'yoqlar. Bu bo'yoqlarning ajoyib xususiyati bo'yoq qatlamlarining tiniqligi va mayinligidir.

**Akril bo'yoqlar** – asosan akril kislotadan tayyorlanadigan sun'iy bo'yoq.

**Animalist** (*lotin. animal – hayvon*) – asosan hayvonlar tasvirini ishlaydigan rassom yoki haykaltarosh.

**Aksent** – biror narsani alohida ta'kidlab, alohida tegishli joyini chizib ko'rsatish.

**Axromatik rang** (*yunon. achrimatos – rangsiz*) – bu ranglar bir-biridan yorug'lik kuchi bilan farq qiali. Axromatik ranglarga oq, qora va kulrangning barcha turlari kiradi.

**Detal** – asarning nisbatan kam parchasi, qismidagi xarakterini belgilab beruvchi element.

**Eskiz** (*frans. esquisse*) – xomaki tasvir. Badiiy asar, bino yaratish jarayonida muailif ko'zda tutgan maqsadini, uning shakli, holati, ko'rinishini gavdalantiradigan tasvir. Ko'pincha rasm bilan ifodalanadi. Moybo'yoq bilan ishlangan, haykaltaroshlik eskizlari ham bo'ladi.

**Fon** (*lot. fundus – tub, asos, zamin*) – kartina va grafika asari, relyef va naqshda asosiy shaklning orqa ko'rinishi, qo'shilma tasvir. Buyuk rassomlar portret fonida manzara aks ettirganlar, bu bilan shaxs yashagan muhitni ko'rsatganlar. Relyef va naqshda shaklning jozibador chiqishiga yordamchi vosita bo'ladi.

**Grattaj** (*frans. gratter – qirmoq, tirnamoq*) – qog'oz yoki kartonga tush to'kib, pero yoki uchli asbob yordamida rasm chizish usuli.

**Grafika** (*yunon. grapho – yozaman, chizaman*) – tasviriy san'at tuni, bo'yoqsiz, faqat chiziqlar bilan rasm solish san'ati va shunday rasmlar (o'yma naqsh, surat, tashbosma, monotip va boshq.).

**Guash** (*ital. guasso – suv bo'yog'i*) – yelim va belila aralashtirilib, suvga qorilgan bo'yoq va shu bo'yoq bllan ishlangan rassomlik asarlari. Ishlatish yo'llari jihatidan guash akvarel bo'yoqlarning yumshoq xiliariga o'xshasa-da, belila qo'shilganligi, bo'yoq qatlaming qalinligi va xiraligi bilan akvareldan farq qiladi.

**IIIq rang** – olov, quyosh va chiroq yorug'ini eslatuvchi ranglar: qizll, sariq, zarg'aldoq, malla kabi ranglar turkumi.

**Janr** (*frans. genre – tur, manzara*) – shakl va mazmun jihatdan o'ziga xos sujet va uslubiy belgllarga ega bo'lgan san'at asani, turmush manzaralarini aks ettirgan rasm.

**Kartina** – mustaqil badiiy qiymatga ega bo'lgan tasviriy san'at asani. Romga tortilgan mato, metall yoki yog'och taxta, karton, qog'ozga moyll bo'yoq, akvarel, pastel, guash, tush, mum kabiiar bilan dastgoh (molbert)ga o'rnatib ishlatiladi. Bu – italyancha «karta» so'zidan olingan bo'lib, «qog'oz» degan ma'noni anglatadi. Kartina so'zining dastlabki ma'nosi – «nozik, chiroyli, bezatilgan qog'oz».

**Kollaj** – tasviriy san'atda biron-blr mato asosiga mazmunan, shaklan va sifat jihatidan har xii elementlarni qorishiq yopishtirish usuli, shunday usulda yaratilgan asar.

**Kolorit** (*ital. colorito, lot. color – rang, bo'yoq ma'nosida*) – tasviriy san'atda real hayotni haqqonly aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o'zaro mutanosibligi, nisbati. Manzaralar va kishilar qiyofasini ifodalashda rangga alohida ahamiyat beriladi.

**Kompozitsiya** (*lot. composition – tuzish, qurish ma'nosida*) – etud yoki surat qurillshi, qismlarining muvofiqligi. Naturani tasvirlashda: jismlarni tanlash va ko'rish, shakl o'lchamlarini aniqlash, kompozitsion markazni paydo qilish va unga asarning ikkinchi darajaii qismlarini bo'yundirish.

**Kontrast** (*frans. kontraste – keskin ziddiyat*) – qora rang oq rang oldida yana ham qoraroq ko'rindi; issiq narsani sezish ketidan sovuqqa sezgirlik kuchayadi va h.k.

**Lastik** – qog'ozdagi grafitni o'chirish uchun o'chirg'ich.

**Maishiy janr** – kundalik xususiy va ijtimoiy turmushga bag'ishlangan tasviriy san'at janni. Maishiy janr sahnalari aks etgan suratlar san'atda qadim zamonlardan ma'lum va mashhur.

**Manzara** (*frans. paysage, pays – o'lka, joy*) – ma'lum bir joyning ko'ninishi, tasviri; tasviriy san'at janri. Manzarada tabiat tasviri – dengiz ko'rinishlari (ma'nna), daraxtzorlar, qirlar, shahar va qishloqlarning qiyofasi, umuman, turli joylarning tasviri orqali kishining his-tuyg'ulari badiiy obrazlarda ifodalanadi.

**Molbert** (*nem. malbrett*) – rassomlikda ishlatiladigan uch oyoqli dastgoh. Ramkaga tortilgan polotnoni yoki taxtani unga o'rnatib rasm chiziladi. Uch oyoq deb ham yuritiladi.

**Nabrosok** – rassomlik yoki haykaltaroshlikda ijodkorning xomaki bajargan ishi. Qalam, ko'mir va boshqalar bilan chizib olingan loyiha.

**Natura** (*lot. natura – tabiat*) – rassom, haykaltarosh uchun namuna, obyekt bo'lgan odam, manzara, tabiiy sharoit va sh.k.

**Naturmort** (*fran. natura morte – jonsiz tabiat*) – tasviny san'at janri. Gul, meva, qushlar, ro'zg'or buyumlari, ayrim mehnat qurollari tasvirlanadi. Uning paydo bo'lishi tasviny san'atda realistik uslubning qaror topishi va taraqqiyoti bilan bog'liq.

**Ornament** (*lot. ornamentum – bezak*) – narsalarni (asbob-anjomlar, qurollashalar, to'qimachilik mahsulotlari, mebel, kitoblar va h.k.), me'morlik inshootlari, plastik san'at asarlari va jismlarni bezash uchun elementlarning bir maromda tarkib topishi uchun mo'ljallangan naqsh.

**Palitra** (*frans. palette – plastinka, palitra*) – rassom bo'yoq qoradigan taxtacha. Metall, chinni, ba'zan yog'ochdan tayyorlanadi. Ma'lum blr rasm uchun xarakterli bo'lgan rang, bo'yoqlar ham palitra deb yuritiladi.

**Portret** (*frans. portret – tasvir*) – real borliqda mavjud bo'lgan yolg'iz, ikki yoki bir guruham kishilar tasviri. Kishilar boshi, beligacha yoki butun gavdasi to'la aks ettirilishi mumkin. Portret tasviriy san'atning eng muhim janrlaridan biri bo'lib, avtoportret tun keng tarqalgan. Rassom naturadan yoki xotiralar asosida, arxiv materiallarga tayanib portret yaratishi mumkin.

**Qo'shimcha ranglar** – ranglarni aralashtirganda hosil bo'ladigan omixta rang yoki rangning tusi, ohangi, to'qligi, ochligi, qizil, saniq, zangon ranglarni qo'shish orqali olingan ranglar.

**Rakurs** (*frans. raccoureir – qisqarish ma'nosida*) – tasviriy san'atda turli narsalarni qisqartirib aks ettirishning haqqoniy ko'rinishining o'zganishiga olib keladi: keskin qisqarishlar jismning usti yoki tagidan kuzatilganda namoyon bo'ladi.

**Siluet** – bir rangda ishlangan kontur surat. Siluetda odamlar qiyofasi va narsalar butunlay qora rangda chiziladi. Bunday suratlarda odamlarning yuz

ko'rinishi yoki biron-bir narsaning tafsilotini ko'rsatib berib bo'lmaydi, shuning uchun narsalarning tashqi ko'rinishi juda ifodali aks ettirilishi kerak.

**Simmetriya** – grekcha so'z bo'lib, o'lchamlarning bir-biriga mosligi, tengligi, mutanosibligi. Simmetriyaning bir qancha turlari bor.

**Ton** (*yunon. tonos – kuchlanish*) – qalamtasvir yoki rangtasvir ishlash jarayonida buyum tusi yoki rangning yorug'lik tushishi natijasida hosil bo'ladigan yoritilishi, och-to'qlik darajasi kuchi.

**Vatman** (*ingl. whatman*) – qalin, olly sifatl chizmachilik qog'ozzi. Ingliz qog'oz fabrikasi egasi J. Vatman nomi bilan atalgan.

**Vitraj** (*lotin. vitrum – shisha*) – eshik va derazalarga turli rangdagi shishalardan ishlangan surat, tasvir, naqshlar.

**Yorqin bo'yoqlar va ranglar gammasi** – tasviriy va dekorativ san'atda badiiy asar yaratishda foydalaniladigan ranglar farqining o'zaro uyg'unligi. Rangning turli tuslari, masalan, iliq, yorqin va sovuq rang tuslari.

**Shtrix** (*nem. strich – chiziq*) – qo'lning bir harakati bilan bajariladigan chiziq. Qiyoфа va narsalarning sirtqi ko'rinishi va shakli shtrix (chiziq)lar yordamida berlladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». – T., 1997-yil 1-oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi «2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2707-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. – Toshkent. 2018.
4. Maktabgacha ta'lim muassasasining «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi. – Toshkent. 2018.
5. Т.С. Комарова. Теория и методика изобразительной деятельности в детском саду. – М.: «Просвещение», 1997.
6. M.Sh. Nurmatova, Sh.T. Hasanova. Rasm, buyumlar yasash tasviriy faoliyat metodikasi. – Toshkent. 2010.
7. R. Xasanov, X. Egamov. «Tasviriy san'at darslari». – T.: «O'qituvchi». 1995.
8. Sh.T. Hasanova. Bolalar tasviriy faoliyatiga rahbarlik qilish metodikasi. Toshkent. 2010.
9. Т.Г. Казакова Развивайте у дошкольников творчество. – М.: «Просвещение», 2007. 100 стр.
10. И.А. Лыкова Изобразительная деятельность в детском саду. – М.: «Сфера», 2011. 200 стр.
11. Ю.В. Рузанова Развитие моторики рук в нетрадиционной изобразительной деятельности. – М.: «Сфера», 2010. 256 стр.
12. Шайдурова Н.В. Методика обучения рисованию детей дошкольного возраста. – М.: ТЦ Сфера, 2008. 160 стр.
13. Комарова Т.С. «Изобразительная деятельность в детском саду». – М., 2012.
14. X. Egamov. Bo'yoqlar bilan ishlash. – T.: «O'qituvchi», 1991.
15. O. Maxmudova. Tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi o'quv uslubly majmua. – T., 2018.

## **Elektron ta'lif resurslari**

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz).
2. Xalq ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi:[www.multimedia.uz](http://www.multimedia.uz)
3. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi: [www.giu.uz](http://www.giu.uz)
4. Ijtimoiy axborot ta'lim portalı: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
5. Maktabgacha ta'lim vazirligi: [www.mtv.uz](http://www.mtv.uz).
6. Respublika bolalar kutubxonasi: [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz).
7. «Maktabgacha ta'lim» jurnali: [www.jlmt.uz](http://www.jlmt.uz).

# MUNDARIJA

KIRISH ..... 3

## I BOB. Maktabgacba ta'limda tasviriy faoliyat metodologlyasi

1.1. Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari .....	6
1.2. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan ko'rgazmali metod va o'rgatish usullari.....	10
1.3. Maktabgacha ta'limda amaliy metodlarning qo'llanilishi .....	20
1.4. Tarbiyachining mashg'ulotga tayyorgarligi.....	23

## II BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARINI TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISHDA RASM TURLARI

2.1. Rasm mashg'ulotlarini tashkil etishda rasm turlarini tanlash imkoniyatlari .....	27
2.2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida alohida predmetlarning rasmini chizishga o'rgatishning vazifalari.....	28
2.3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida sujetli rasm chizishga o'rgatishning vazifalari.....	37
2.4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida dekorativ rasm chizishga o'rgatishning vazifalari.....	45
2.5. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy san'atni tashkil etishda noan'anaviy usullardan foydalanish .....	55
2.6. Rasm mashg'ulotlari uchun materiallar va uskunalar .....	61
Illustrativ materiallar .....	65
Tasviriy savodxonlikni baholash .....	126
Bilimlarni tekshirish uchun testlar .....	132
Test kaliti.....	143
Xulosa va tavsiyalar .....	144
Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati.....	145
Foydalilanilgan adabiyotlar .....	149

*O'quv nashri*

*Maxmudova Oybarchin Axatovna*

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARНИ RASM  
CHIZISHGA О'RGATISH METODIKASI**

*O'quv qo'llanma*

Muharrir A. Ziyodov

Rasmlar muharriri Sh. Mamajonova

Kompyuterda tayyorlovchi B. Babahodjayeva

Original-maket «Niso Pollgraf» nashriyotida tayyorlandi.  
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-ota» QFY,  
Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Lisenziya raqami AI № 265.24.04.2015.

Bosishga 2019-yil 15 oktabr ruxsat etildi. Bichimi 84×108<sup>1/16</sup>.  
Ofset qog'ozsi. «Arial» garniturası. Nashr tabog'i 9,5.  
Adadi 2000 nusxa. 743-sonli buyurtma.

«NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-ota» QFY,  
Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.